



UDK:902:339.1:008

Tursunoy BERDIYEVA,
Termiz davlat universiteti stajyor-tadqiqotchisi
E-mail: tursunoyberdiyeva11@gmail.com

Renaissance university dotsenti U.Ergashev taqrizi asosida

“ABDULLANOMA” ASARIDA SURXON-SHEROBOD VOHASINING O'RTA ASRLAR TARIXI YORITILISHI VA UNING ARXEOLGIK MANBALAR BILAN QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Surxon-Sherobod vohasining o'rta asrlardagi tarixi Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asari asosida o'rganiladi. Asarda voha hududidagi shaharlar, qishloqlar, toponimlar va moddiy madaniyatga oid ayrim ma'lumotlarning arxeologik manbalar bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. “Abdullanoma” tarixiy manbasi orqali vohaning XVI asrdagi holati, siyosiy hayoti va madaniy ko'rinishi yoritiladi. Tadqiqotda asarda keltirilgan ma'lumotlar bilan Surxon-Sherobod vohasi arxeologik yodgorliklari o'rtasidagi muvofiqlikka e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: Surxon-Sherobod vohasi, Abdullaxon II, Termiz shahri, Chag'oniyon, Hisor qal'asi, Amudaryo daryosi, joy nomlari (toponimlar), kechuvlar, Balx shahri, bekliklar.

ОТРАЖЕНИЕ ИСТОРИИ СУРХАНДАРЬИНСКО-ШЕРАБАДСКОЙ ДОЛИНЫ В СРЕДНИЕ ВЕКА В СОЧИНЕНИИ «АБДУЛЛАНОМА» И ЕЁ СООТНЕСЕНИЕ С АРХЕОЛОГИЧЕСКИМИ ИСТОЧНИКАМИ

Аннотация

В данной статье история Сурхандарьинско-Шерабадской долины в период средневековья изучается на основе сочинения Хафиза Таниша Бухари «Абдуллонома». В работе рассматриваются сведения о городах, селениях, топонимах и элементах материальной культуры долины, содержащиеся в источнике, а также их взаимосвязь с археологическими материалами. Через призму «Абдуллономы» освещается политическая и культурная жизнь региона в XVI веке. В исследовании особое внимание уделяется соответствию между данными источника и археологическими памятниками Сурхандарьинско-Шерабадской долины.

Ключевые слова: Сурхандарьинско-Шерабадская долина, Абдуллахан II, город Термез, Чаганиан, Гиссарская крепость, река Амударья, топонимы, переправы, город Балх, бекства.

THE DEPICTION OF THE MEDIEVAL HISTORY OF THE SURKHAN-SHERABAD OASIS IN THE “ABDULLANOMA” AND ITS CORRELATION WITH ARCHAEOLOGICAL SOURCES

Annotation

This article examines the medieval history of the Surkhan-Sherabad oasis based on the historical work Abdullanoma by Hofiz Tanish Bukhari. The study analyzes references in the text to cities, villages, toponyms, and elements of material culture within the oasis, and explores their connection with archaeological sources. Through Abdullanoma, the political and cultural landscape of the region during the 16th century is revealed. Special attention is given to the correlation between the historical data presented in the source and the archaeological monuments of the Surkhan-Sherabad oasis.

Key words: Surkhan-Sherabad oasis, Abdullakhan II, city of Termez, Chaganiyan, Hisar fortress, Amu Darya river, place names (toponyms), river crossings, city of Balkh, beklik system.

Kirish. “Abdullanoma” (“Sharafnomai Shohiy”) — Movarounnahrning XVI asr tarixiga bag'ishlangan muhim tarixiy manbalardan biridir. Asar Hofiz Tanish Buxoriy tomonidan 1584-1590-yillar oralig'ida fors tilida yozilgan. U Buxoro xoni Abdullaxon II sharafiga bag'ishlangan bo'lib, Abdullaxon II 1533-yil Miyonkolda tug'ilgan, 1598-yil Samarqand viloyatida vafot etgan. Abdullaxon II Buxoro xonligida Shayboniylar sulolasidan chiqqan eng yirik hukimdor va davlat arbobi. “Abdullanoma” asarida Surxon-Sherobod vohasining so'nggi o'rta asrlar davrida yuz bergan siyosiy voqealar natijasidagi o'zgarishlar, chegaralarning shakllanishi, yondosh hududlar bilan aloqalar, shuningdek, aynan Abdullaxon davridagi qurilish ishlari va aholining turmush tarziga oid ma'lumotlar aks ettirilgan. Asarning ayrim qisqartirilgan nusxalari “Zafarnomai Abdullaxon” nomi bilan ham mashhur. Biroq asarning yakuniy qismi yozib tugatilganmi yoki yo'qmi — bu hali aniqlanmagan. Asarda Abdullaxonning nasl-nasabiga doir ma'lumotlar berilgan bo'lib, asarning asosiy qismi Shayboniylar vafotidan keyingi Movarounnahrda siyosiy vaziyat, yurtning bir nechta mayda

hokimliklarga bo'linib ketishi, Abdullaxonning markazlashuv siyosatini amalga oshirish, davlatni siyosiy jihatdan birlashtirish yo'lidagi harakatlari, Dashti Qipchoq va Xuroson sari yurishlari haqida muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Xususan, Termiz shahrining Abdullaxon tomonidan bosib olinishi, shaharning mudofaa tizimi, qal'a va shahar tuzilishi, Termizning Balx hamda boshqa shaharlar bilan siyosiy-iqtisodiy aloqalari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Asar Abdullaxon siyosini kuchli siyosiy arbob sifatida tasvirlash, uning markazlashgan hokimiyatni tiklashga qaratilgan harakatlarini yoritish, shu bilan birga, unga madh o'qish orqali obro'sini ko'tarish maqsadida yozilgan. “Abdullanoma”da ko'plab toponimlar, o'zbek urug'lari va Amudaryodan o'tuvchi muhim kechuvlar qayd etilgan. Shuningdek, asarda Abdullaxonning Hisor qal'asini bosib olganligi va ushbu hududning geografik hamda strategik ahamiyati haqida ham ma'lumotlar mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Z.Xoliqov va X.Dejimurodovning “Termiz va Chag'aniyoning o'rta asrlardagi tarixiy geografiyasi” nomli tadqiqotida

“Abdullanoma” (“Sharafnomai Shohiy”) asarida Termizni Movarounnahrning shaharlaridan biri ekanligi va etnik tarkibi, topografik o'rni hamda me'moriy binolari haqida ma'lumotlar berilgan. Bu davrda Termiz Balx hukmdori Dinmuhammadga (1567-1573) bo'ysungan. Abdullaxon Termizni bosib olishdan avval Hakim at-Termiziy va Abu Bakr al-Varroq mozorlarining shayxlarini yoniga chorlab katta sovg'alar bilan siylagan. Shundan so'ng qal'a qamal qilinadi. Bu davrda Jayxun daryosi qoshidagi qal'a hashamatli imorati va yaxshi taroshlangan xandaq bilan mustahkamlangan [1].

S.Jurayevaning “Surxondaryo viloyati ziyoratgohlari tarixi” tadqiqotida Hofiz Tanish Buxoriy “Abdullanoma” asarida Temuriylar davrida Hakim Termiziy maqbarasida amalga oshirilgan qurilish-ta'mirlash ishi haqida keltirib o'tgan [2].

Z.A.Arshavskaya, E.V.Rtveladze va Z.A.Xakimov muallifligidagi “Surxondaryoning o'rta asr yodgorliklari” (“Средневековые памятники Сурхандарьи”) asarida Abdullaxon tomonidan qurilgan inshootlar haqida ham to'xtalib o'tilgan. Jumladan, Qumqo'rg'ondagi Iskandar ko'prigi XVI asrda Termiz va janubiy viloyatlarni Chag'oniyon hamda Hisor bilan bog'lovchi muhim qadimiy savdo yo'li ustida joylashgan. Ushbu ko'prik 1598-yilda Abdullaxon topshirig'i bilan bunyod etilgan. Mahalliy aholi uni «Tosh ko'prik», «G'isht ko'prik» yoki «Iskandar Zulqarnayn ustuni» deb ataydi [3].

V.V.Bartold tadqiqotlarida “Tohariston” atamasi ham kengroq ma'noda qo'llanilgan va Amudaryoning har ikki qirg'og'idagi barcha hududlarni qamrab olgan va Balxga tomon tortilgan. Panj va Vaxsh oralig'ida Arxang chorrahasidan yuqorida bir-biri bilan tutashgan to'rtta daryoni nomlaydi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida zamonaviy fan rivojlanishining qonuniy tendensiyalaridan biri bo'lgan fanlararo yondashuv usulidan foydalanildi. Tahlil umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik yondashuv, ketma-ketlik, hamda xolislik tamoyillari asosida olib borildi.

Tahlil va natijalar. Abdullanoma asarida Surxon-Sherobod vohasi tarixi bilan bog'liq Balx, Hisor bekligi, Termiz, Tohariston kabi joy nomlariga duch kelish mumkin. Balx — Xurosonning qadimgi va mashhur shaharlaridan biri bo'lib, manbalarda Xurosonda Balxdan qadimgiroq shahar yo'qligi ta'kidlanadi. Kitoblardagi ma'lumotlarga ko'ra, Tohariston Balx bilan Badaxshon oralig'ida joylashgan viloyat bo'lib, uning “Tohariston” deb atalishiga sabab — ana shu hududda qadimdan yashab kelgan va Yunon-Baqtriya davlatining qulashida faol ishtirok etgan “tohar” nomli xalq bilan bog'liqdir [4].

Asarda Samingon — Toharistonning shaharlari qatorida, Baqlon esa Tohariston qishloqlaridan biri sifatida tilga olinadi. Samingon bilan Qunduz oralig'ida joylashgan yirik qishloq ham zikr etilgan [4]. Shuningdek, Saroy shahri haqida ham ma'lumotlar beriladi. Ushbu shahar XIII asrning ikkinchi yarmida Chig'atoy naslidan bo'lgan xonlar tomonidan Amudaryo bo'yida, o'ng sohilida bunyod etilgan. Saroy “Soli Saroy”, “Saroy Qamar” deb ham atalgan. Bugungi kunda u Surxondaryo viloyatiga qarashli Saroy qishlog'i bilan bog'lanadi. [4]. Ma'lumotlarga ko'ra, Abdullaxon davrida bu hudud Balx tasarrufida bo'lgan.

Balxga bo'ysungan boshqa hududlar qatoriga Arxang, Toliqon, Andxud, Shibirg'on, Son, Chorik, G'azna, Bomiyon, Kobul, Sind daryosi bo'yidagi yerlar, Hirot tomondan Langar va Chechaktu to Murg'obgacha bo'lgan viloyatlar kirgan. Ushbu yerlar Surxon-Sherobod vohasi bilan bevosita yondosh bo'lgan. Ba'zi manbalarda Gurjiston ham Balxga qarashli deya ko'rsatilgan bo'lsa, boshqalar uni Hirotga oid deb hisoblaydi Arxang Saroyga qarama-qarshi, Amudaryoning

so'l sohilida joylashgan bo'lib, Tohariston tomonga qaragan. XVI asrda bu maskan “Hazrat Imom” nomi bilan mashhur bo'lgan [4].

Asarda ba'zi qishloqlar nomi ham qayd etilgan:

Siyohgird — Termiz bilan Balx oralig'ida joylashgan qadimiy qishloq bo'lib, hozirgi kunda ham ushbu nomdagi qishloq yaqinida uning xarobalari mavjud. Asarda Dinmuhammadga (1567-1573) yordamga kelgan Badaxshon voliyi Shoh Sulaymon va Hisori Shodmon qal'asi hokimi Hoshim Sulton Siyohgird talonchilik qilgani, bu xabarni eshitgan Abdullaxon amiri Iqimni 300 jangchi bilan urush qurollari tayyorlab yuborgani va ular Amudaryo bo'yida dam olayotgan guruhga hujum qilib tor-mor qilgani bayon etiladi. Hisori Shodmon qal'asiboshqa manbada, masalan, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida keltirilishicha, voqealar Kaxalkdan o'tib, amir Xusaynga qo'shilish bilan davom etadi. Ular birgalikda Hisori Shodmon tomon yurishgan, chunki amir Bayon Sulduz o'sha yerda joylashgan edi. U jang qilishdan cho'chib, Badaxshon tomon chekingan. Badaxshonga yetganlarida, u yerning voliyi amir Xusayn hukmronligini tan olgan. Asarda Hisori Shodmon nomi aniq tilga olingan [6].

Soli Saroy — Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan qadimiy shahar. Hozirgi Saroy qishlog'i bilan bog'liq bo'lib, «Saroy Qamar» nomi bilan ham tanilgan.

Sayrob — Darband vodiysining janubiy qismida, Sherobodga boradigan qadimiy yo'l bo'yida joylashgan. Asarda bu qishloq xushmanzara joy sifatida tasvirlanadi va Sheroboddan taxminan 25 km uzoqlikda joylashgani qayd etilgan.

Shuningdek, Balx qal'asi uchun olib borilgan urush chog'ida Abdullaxon amir Abdullox Termiziyning o'g'li Mir Arabning uyida turishni maqsad qiladi va qal'a qarshisida to'xtaydi. Balxni zabt etishda Hisori Shodmon qal'asi hokimi Hoshim ham Abdullaxonga yordam beradi [4].

Abdullanoma (“Sharafnomayi shohiy”) ikkinchi kitobi izohida Saroy nomli shahar haqida ma'lumot beriladi. Ushbu shahar Amudaryo yoqasida, Chig'atoy naslidan bo'lgan xonlar tomonidan XIII asrning ikkinchi yarmida bunyod etilgan. Saroy “Soli Saroy”, “Saroy Qamar” deb ham atalgan va Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan. Hozirda bu joy Surxondaryo viloyatiga qarashli Saroy qishlog'i hisoblanadi. Asarda ushbu maskan “Saroy Kamar” deb tilga olinadi [7].

Abdullanoma asarida Amudaryo bo'yidagi muhim kechuvlar va geografik joy nomlari qayd etilgan. Ularning ba'zilar strategik harbiy yurishlar bilan bog'liq bo'lib, tarixiy jarayonlarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asarda tilga olingan Amudaryo kechuvlari orasida Ayvoj kechuvi haqida so'z borgan. Bu kechuv haqida boshqa manbalarda ham keltirilgan. Masalan, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida Amudaryodagi Uyoch guzari haqida ham ma'lumot berilgan. Bu kechuv Abdullanomada Ayvoj kechuvi deb nomlanadi [8]. Arxang — daryoning mashhur kechuvlaridan biri bo'lgan. Shuningdek, Kalif kechuvi ham muhim bo'lib, u Termizdan ikki kunlik masofada joylashgan. Qayd etilishicha, Amudaryoning har ikki sohilida joylashgan va shu nom bilan ataluvchi shahar ham mavjud bo'lgan. Bu kechuv savdo va harbiy yurishlar yo'lidagi asosiy nuqtalardan biri hisoblangan.

Asarda Buxoro hokimi Abdullaxon Buxoroga taklif qilinadi va u Burdalik kechuvi orqali harakatlanadi. Ushbu kechuv Amudaryoning o'ng sohilida, Kalif kechuvi bilan yonma-yon joylashgan bo'lib, tarixda shahar va viloyat markazi sifatida ham ma'lum bo'lgan. Burdalik — Amudaryoning asosiy kechuvlaridan biri sifatida tilga olinadi. Shuningdek, Abdullaxonning Shibirg'on tomon yurish qilgani va bu yurishda Karki kechuvi orqali o'tganligi ham asarda qayd etilgan.

Asarda tilga olingan yana bir geografik joy nomi — Giz darasi. Sulaymon o'z o'g'li Ibrohim Mirzoga qarshi Badaxshon tomonidan urush ochgan va jangda mag'lub bo'lganidan so'ng, Ibrohim Mirzo oz sonli askarlari bilan piyoda holda sarosima va sargardon bo'lib, Ko'histonning etaklarida joylashgan Giz darasiga yashiringan. Giz darasi — Hisor tog'larining janubiy bag'rida, Sarig'ju bilan Yag'nob oralig'ida joylashgan. Ba'zi manbalarda ushbu hudud Mergan dara deb ham atalgan [4].

Abdullaxon Marvni bosib olish maqsadida urush boshlaganida katta lashkar to'playdi. Bu lashkar Sher Shutir cho'li orqali o'tib, Sayrob nomli joyga yetib keladi va shu yerda to'xtaydi. Asar izohlarida keltirilishicha, Sher Shutir cho'li — Qoraqum sahrosining sharqiy qismi bo'lib, hozirgi Turkmaniston va Amudaryo oralig'ida joylashgan. Sayrob esa Darband (Busjloxon) vodiysining janubiy qismida, Sherobodga olib boruvchi yo'l bo'yida, taxminan 25 km masofada joylashgan xushmanzara qishloq sifatida tasvirlanadi [4].

Shuningdek, asarda Abdullaxonning 1567-yilda Shahrisabzni bosib olishga qaror qilgani va shu jangda bir qator sodiq lashkarboshilarning ishtirok etgani bayon etilgan. Jumladan, Kuchak o'g'lon, Muhammad Aminbiy Qushchi, Shohmuhammad Mirzo Mang'it, Shohim Ko'kaltosh Buxoriy va Turdi Otaliq kabi jangchilar yordamga kelgan. Ular Termiz darvozasi orqali chiqib, dushman tomon yo'l olishgan [4].

Abdullaxonning Termizni bosib olishi. Abdullaxon o'zining harbiy yurishini Qubbat al-Islom — Balxning qishloqlaridan biri bo'lgan Mardlar shahri orqali Termizga qaratadi. Termizga qarshi yurishga sabab bo'lgan omillar ikki guruhga bo'linadi: tashqi va ichki sabablarga.

Birinch sabab — tashqi siyosiy tahdid bo'lib, Balx hukmdori Dinmuhammad Sultonning dushmanona kayfiyati Abdullaxon tomonidan seziladi va u uni bo'ysundirishga qaror qiladi.

Ikkinchi sabab — ichki omillar bo'lib, Termizda ijtimoiy beqarorlik, jabr-zulm va bosh-boshdoqlik avj olgani tufayli Abdullaxon bu hududni o'z nazoratiga olishni maqsad qiladi.

Abdullaxon Termizni zabt etishga tayyorgarlik taxminan bir yil tayinlanadi. Bu jarayonda unga yordam sifatida Samarqand sultoni Juvonmard Sulton, Abulxayr Sulton va Muzaffar Sulton ketadi.

Asarda Termiz qal'asi haqida quyidagi ta'rif keltirilgan:

“U shunday bir qo'rg'on ediki, Jayhun (Amudaryo) bo'yida joylashgan bo'lib, nihoyatda mustahkam qurilgan edi. Uning burjlari ko'k gumbazidek baland, Javzo burjiga tenglashar, hatto balandligi bilan boshi Zuhroning cho'qqisiga, osmon ayvoniga yetar edi. Uni nihoyatda mustahkam devor o'rab turar edi. Termiz haqida XVIII asrning yirik tarixchisi Мир Мухаммад Амин Бухорий “Убайдулла-наме” asarida Termizni Movarounnahming mashhur va taniqli shaharlaridan biri sifatida eslatadi. Termiz “Erlar shahri” qadimda Barbar deb nomlangan. Shahar juda mustahkam bo'lganligi aytilgan [9].

Asarda Termiz shahrining qudrati va arxitekturasiga doir ushbu tasvir masnaviy shaklida bayon etilgan bo'lib, qal'aning himoya tizimi va geografik joylashuvi uni zabt etish qanchalik mushkul bo'lganini aks ettiradi.

Qal'a demaki, u falak intizomli bir tog'(dir).

Qoplangan unda har tomonda (o'ziga) joy qilgan (edi).

Uning devori bayroq bilan barobar (edi).

Bayrog'i o'q-yoyning qizil-ko'kidandir.

Balandligidan yettinchi falak (dek) bo'lib,

Ummon dengizidek atrofi tog' edi.

Undagi tepalik jahondan nish on berib,

Go'yo sen osmon tagidagi yer deysan.

Abdullaxonning Termizni zabt etish jarayoni

Termiz qal'asi mudofaasi vaqtida qal'a hokimi sifatida Muhammad Sulton faoliyat yuritayotgan edi. Xon o'z qo'shini bilan saropardani (saf to'g'rilovchi bayroq) baland ko'tarib, uni Hulkarning avjiga, Sidratulmuntaho cho'qqisigacha yetkazganidek, shohona tarzda qal'a atrofini qurshab oladi. Bu orada Balx hukmdori Dinmuhammad Sulton tomonidan Muhammad Qulibiy ismli qushchi yordam uchun Termizga jo'natiladi. U Amudaryodan o'tib, jangga qo'shiladi. Balxdan g'alla yetkazish harakati ham amalga oshirilayotgan edi, ammo bu yuk Abdullaxon qo'lga tushib qoladi va g'alla tashuvchilar jazolanadi. Dinmuhammad Sulton o'ziga tobe bo'lgan Andxud, Shibirg'on, Maymana, Garjiston kabi shaharlardan qo'shin to'plab, Termiz tomon yordamga harakat qiladi. Bunga javoban Abdullaxon:

“Xorazm chegarasidan to Termizning chekka viloyatlarigacha qaerda kema bo'lsa, barchasi yig'ilsin,” — deb farmon beradi. Har bir kemaga 50 nafar o'q otuvchi va 50 nafar kamonchi joylashtirilib, ular Amudaryodan o'tib, dushmanga qarshi jang boshlaydilar. Shuningdek, Ibadullo Sulton, Hoshim Sulton, Faqir Sulton va Muhammad Qosim Sulton kabi Hisori Shodmon qal'asi amirlaridan iborat jangchilar guruhi, shuningdek, Ali Mardon bohodirlar suvning yuqori oqimidan kechib o'tadilar. Abulxayr Sulton esa Shahrisabz va unga iqtolangan yerlarning sipohi bilan suvning quyi qismlaridan o'tadi. Ibadullo Sulton va boshqa Hisor amirlari aynan Ayvoj — Kofirnihon daryosining Amudaryoga qo'shiladigan qismida joylashgan qadimiy o'tish nuqtasi orqali o'tishgan. Hijriy 980-yilda Termiz Abdullaxon ixtiyoriga o'tadi. U shaharni Mahmud ismli amirga in'om qilib, unga yordamchi sifatida buyuk no'yon Minglibiyni — otaliq lavozimida tayinlaydi. Shundan so'ng Abdullaxon Buxoroga qaytadi [4].

Abdullaxonning Hisor qal'asini qo'lga kiritishi (1573-yil, oktabr). 1573-yil oktyabr oyida Abdullaxon Hinduvon qal'asini qo'lga kiritib, davlat markazida o'z hukmronligini mustahkamladi. Shundan so'ng u tevarak-atrofdagi hududlar va ularning hokimlarini bo'ysundirish maqsadida elchilar yuboradi. Jumladan, Ahmadxoja otaliq Hisor tomonga noma bilan yuboriladi. Nomaning mazmuni uch asosiy talabdan iborat edi:

Badaxshon hokimi Shoh Sulaymonga qarshi qo'shin yuborilishi;

Shoh Sulaymonning davlatdan chiqarib yuborilishi;

Hisorda yashirinib yurgan Arabbiy qushchining ham Hisordan chiqarilishi.

Biroq Hisor hokimi Hoshim Sulton bu talablarni bajarmaydi. Bu holat Abdullaxonning g'azabiga sabab bo'ladi va u Hisorga qarshi yurish boshlaydi. Bahrom ismli tovoqchilar tevarak-atrofdan qo'shin yig'ish uchun yuboriladi. Yig'in joyi sifatida Nasaf belgilangan edi. Hoshim Sulton Abdullaxon qo'shini yaqinlashayotganidan xabar topib, Boqibiy ismli vakilni xon huzuriga yuboradi. Biroq Abdullaxon qaroridan qaytmaydi. Hisor tarafdorlari — Abulqosim Sulton va Muhammad Qosim Sulton — Hisorni tark etib, Ko'lobdan panohtopadilar. Asarda Hisor qal'asi mashhur, mustahkam va himoyaviy ahamiyatga ega qo'rg'on sifatida ta'riflanadi. Hisor haqida boshqa ko'plab olimlarning asarlarida keltirilgan. Masalan, Б. И. Искандаров “Из истории Бухарского эмирата” asarida ta'kidlanishicha, Sharqiy Buxorodagi eng yirik beklıklardan biri — Hisor bekligi bo'lgan. Aynan Hisorgina qatl qilish vakolatiga ega bo'lgan, beklilik sifatida ajralib turgan. Shuningdek, Hisorda katta harbiy kuch saqlanganligi uning siyosiy mavqeini yanada mustahkamlagan [10].

Hisor sultoni mag'lubiyatdan so'ng taslim bo'ladi va kechirim so'raydi. Biroq xon ularning ayrim harakatlarini kechirmay, ularni asir qiladi. Bu voqealar ortidan Temurxonning o'g'li Hoji Muhammad Sulton otasining qasosini olish maqsadida Hazrati Sohibqironga (ya'ni

Abdullaxonga) murojaat qilib, Hoshim Sulton va Muhammad Sharif Sultonlarni so'rab oladi va ularni qatl ettiradi. Yakunida Abdullaxon Hisor viloyatini Janob O'zbek Sultonga in'om qiladi [4].

Xulosa va takliflar. Hofiz Tanish Buxoriyning Abdullanoma asarida muallif xonnimaqtash va uni ulug'lashga harakat qilgan. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, asar tarixiy voqealarni haqqoniy yoritish zaruratini yuzaga chiqaradi. Asar islom dini muqaddas kitobi "Qur'oni karim" bilan boyitilganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, Termizning Balx va boshqa shaharlar bilan bo'lgan siyosiy-iqtisodiy aloqalari haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Asarda Abdullaxon kuchli siyosiy arbob sifatida tasvirlanib, uning markazlashuv siyosatini targ'ib qilish va xon obro'sini

oshirishga qaratilgan madhiyalar keltirilgan. Bundan tashqari, Abdullaxonning Hisor qal'asini bosib olganligi va ushbu hududning tabiiy va strategik sharoitlari haqida ham ma'lumotlar berilgan. Asarda Abdullaxon davridagi siyosiy voqealar va bunyodkorlik ishlari alohida o'rin egallaydi. Surxon-Sherobod hududiga oid joy nomlari, tarixiy shaxslar, tog' nomlari, qishloq va shaharlar, ma'muriy bo'linmalar haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Bundan tashqari asardagi joy nomlari boshqa manbalar bilan qiyosiy o'rganildi. Xulosa qilib aytganda, Abdullanoma asari Surxon-Sherobod vohasining so'nggi o'rta asrlar tarixini o'rganishda, shuningdek, hududdagi shaharsozlik, siyosiy tuzilma, transport yo'llari va ijtimoiy hayotni tadqiq etishda bebaho manba bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Xoliqov Z., Dejimurodov X. Termiz va Chag'aniyoning o'rta asrlardagi tarixiy geografiyasi. Moziydan sado. 2004, 2-son. – B.22-24.
2. Jurayeva S. Surxondaryo ziyoratgohlar tarixi. – Toshkent: "O'zkitob savdo nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2021. – B. 9-10.
3. Аршавская З.А., Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Средневековые памятники Сурхандарьи. Т.1982. – С. 56-61.
4. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma ("Sharafnomayi Shohiy"). Birinchi kitob. Fors tilidan tarjima: S. Mirzayev tarjimas. So'zboshi va izohlar muallifi: B. Ahmedov. – Toshkent: Sharq, 1999.
5. Бартольд В.В. Сочинения. I Москва: Издательства восточной лит., 1963. – С. 118.
6. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent, 1972. – B. 97.
7. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma ("Sharafnomayi Shohiy"). Ikkinchi kitob. Fors tilidan: S. Mirzayev va Yu.Hakimjonov tarjimas. Izohlar muallifi: B. Ahmedov. – T.: Sharq, 2000. – B. 280.
8. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – B. 107-110.
9. Мир Мухаммад Амин Бухорий. Убайдуллонаме. 1957. – С. 35-80.
10. Искандаров Б.И. Из Истории Бухарского Эмирата. Москва: Издательство восточной литературы. 1958. – С. 7-35.



UDK:94:908.396

Asxat BIYKUZIIYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD

TDSHU professori, tarix fanlari doktori S. Shadmanova taqrizi asosida

THE HISTORY OF INDIA'S SOCIO-POLITICAL DEVELOPMENT IN ANTIQUITY

Annotation

A number of studies are being conducted in the world on the ancient traditions of statehood and urban planning in India, migration processes in the region, and their influence on the lives of the peoples of the region. This article discusses these matters.

Key words: Civilization, Indian state, Sanskrit language, Central Asia, Ramayana.

ИСТОРИЯ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ИНДИИ В АНТИЧНЫЙ ПЕРИОД

Аннотация

В мире проводится ряд исследований по древним государственным и градостроительным традициям Индии, миграционным процессам в регионе и их влиянию на жизнь народов региона. В данной статье обсуждаются эти вопросы.

Ключевые слова: Цивилизация, Индийское государство, санскритский язык, Центральная Азия, Рамаана.

ANTI-K DAVRDA HINDISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIIY TARAQQIIYOTI TARIXI

Annotatsiya

Jahonda Hindistondagi qadimiy davlatchilik va shaharsozlik an'analari, mintaqada kechgan migratsiya jarayonlari va ularning o'lka xalqlari hayotiga ta'siriga oid qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur maqolada shular haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Sivilizatsiya, Hind davlati, sanskrit tili, Markaziy Osiyo, Ramayana.

Kirish. Qadimgi Hindiston tarixida muhim o'rin tutgan Mauriya davlati Chandragupta Mauriya tomonidan Taksilada, diniy rahnamo braxman Chanakya yordamida tashkil etilgan. Bu paytlar yosh Chanragupta Mauriya mamlakat shimolidagi Taksilada bilim olayotgan edi. Afsonalarga ko'ra, Chanakya Makedoniyalik Iskandarga qarshi kurashni boshlash uchun Magadxa davlatiga tashrif buyurgan. Ammo Magadxa rojasi Dxana Nanda (mil.av. 321-316 yy) uni kamsitib mamlakatdan ketishga majbur qiladi. Braxman Chanakya esa o'ch olishga va Nandlar sulolasini yo'q qilishga ahd qiladi. Bu orada Makedoniyalik Iskandar qo'shinlari Magadxa bilan urushishni istamay, Beas daryosidan o'tmaydi. Iskandar esa qo'shinining katta qismi bilan Mesapotamiyaga qaytib ketadi. Miloddan avvalgi 323-yilda Makedoniyalik Iskandar Bobilda vafot yetganidan ko'p o'tmay, uning ulkan imperiyasi lashkarboshi(diodox)lari tomonidan bo'lib olinadi.

Panjob rojasi Por bilan ittifoqdosh bo'lgan Chandragupta Mauriya hokimiyat uchun kurashni boshlaydi. Ammo ko'p o'tmay, roja Por ichki kurashlar oqibatida halok bo'ladi. Antik tarixchi Sitsiliyalik Diodor uning o'limiga yunon satrapi Evdamni aybdorligini ta'kidlab o'tadi. Miloddan avvalgi 317-yilda Makedoniyalik Iskandar Shimoliy Hindistonda qoldirib ketgan yunon-makedon qo'shinlari lashkarboshisi Evdam mamlakatni tark etishga majbur bo'ladi. Natijada Chandragupta amalda hozirgi Panjob yerlari hukmdori bo'ldi. Endi asosiy e'tibor Sharqda Nand sulolasi qo'lida qolgan Magadxa taxtini egallashga qaratildi. Chandragupta Hindistonning shimoli-G'arbiy qismidagi ba'zi kichik konfederativ davlatlarni uyushmalarini qo'llab-quvvatlab, o'z qo'shinlarini Nandalarga qarshi boshladi. Ulkan Nandlar imperiyasiga qarshi chiqish uchun kuchli armiyani to'plash lozim edi[1]. Nandlar bilan qonli kurash uzoq davom etadi. Nandlar sulolasi tomonida kelib chiqishi xarbiylardan bo'lgan Bxadrashala Chandraguptaga qarshi jang qilgan[2]. Urushda halok bo'lganlar soni 10 mingga yaqin

fillar, 100 ming suvoriy, 5 ming jang aravadaga teng bo'lgani manbalarda ta'kidlanadi[3]. Nandlar podshosi Dxana Nanda taxtdan qulatilganidan so'ng Chandragupta Mauriya imperiyasini g'arbga qadar kengaytirishga ahd qiladi. Bu yo'lda u Eron va Mesapotamiyaga egalik qilayotgan Salavka Nikator bilan to'qnashadi. Ushbu ulkan imperiyalar o'rtasidagi urush sulx bilan yakunlanadi. Yunon manbalarida Mauriyalar podshosi Sandrakott deb atalgan. Chandragupta Mauriyalar davlati tarkibiga Araxosiya(Janubi-Sharqiy Afg'oniston va Shimoliy Pokiston), Gedrosiya(Janubi-Sharqiy Eron), Paropamisad(Hindikush) yerlarni qo'shib olishga erishadi. Sulolalar o'rtasida nikox shartnomasi tuzilgan[4]. Salavkiylarga esa 500 ga yaqin fillar taqdim etilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qurolliy kuchlar qadimgi Hindiston davlatlarida, ayniqsa Mauriyalar konfederativ imperiyasida katta o'ringa ega bo'lgan. Podsholiklar o'rtasidagi urushlar va qo'shni rojaliklar talon-taroj qilinishi, davlat uchun muhim iqtisodiy farovonlik manbai sifatida qaralar edi. Maxarajalar o'zida tegishli bo'lmagan yerlarni kuch bilan qo'lga kiritgan jangchi sifatida ulug'langan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy asosini obyektivlik va tarixiylik prinsipi, fenomenologik va germevntik yondashuvlar, tizimlashtirish usullari tashkil etadi. Shuningdek, maqoladagi ma'lumotlarni tahlil etishda statistik usuldan ham foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Qadimda hind davlatlari armiyasi kshatriylar, yollanma askarlar, alohida ijtimoiy uyushmalar, xususan savdo tashkilotlari, qaram ittifoqchilar, vassallar tomonidan ta'minlangan jangchilardan iborat edi. Rojaliklar qo'shini kasta tizimiga asoslangan edi. Aksariyat maxajanapadaliklarda faqat kshatriyalarga qurol olib yurish mumkin bo'lgan. Urush boshlanganda kshatriylar kastasi vakillari birinchilardan safarbarlikka tayyor turishgan.

Armiya jamoat tartibini himoya qilish funksiyalarini ham bajargan. U davlat yaxlitligini himoya qilish uchun

hushyorlik bilan turishi kerak edi. Shu munosabat bilan harbiy bo'linmalar "ikki, uch, besh, shuningdek, yuzlab qishloqlar" qatoriga joylashtirilgan[5]. Qo'shinda jangovor fillardan foydalanish boshlangan davrlar edi. Otiqlarni o'rni dastlab jangovor aravalar ishlatilardi[6], chunki ilk temir davrida otlarni odamni og'irligini ko'tara oladigan nasli hali mavjud bo'lmagan. Jangovorlik hislatlari qadimgi hind dini va madaniyatida o'z aksini topgan[7]. Buni mashhur Maxabxorat dostonida ham ko'rishimiz mumkin.

Chandragupta Mauriya qarorgoxida bo'lgan Salavkiylar davlati elchisi Megasthenes ko'p millatli hind qo'shinini 400 mingdan oshiqligi ta'kidlaydi. Bu armiyada o'g'irliklar va talonchiliklar kam uchrashini e'tirof etib, eng katta o'g'irlik qiymati 200 draxmadan oshmaganligini[8] aytib o'tadi.

Mauriylar qo'shinlarida tibbiyotga katta e'tibor berilgan. Ayniqsa turli xil malhamlarni xurmo daraxti navdasidan yasalgan tayoqcha yordamida tanaga surtish orqali muolija qilish keng tarqalgan. Dafn ma'rosimlari oddiy va sodda bo'lgan. Ularning qabrlari ham hashamdor emas edi. Ammo hayoti davomida hindlar qimmat baho toshlar bilan bezatilgan taqinchoqlarga qiziqishlari yunon elchilarining e'tiborini tortgan. Aksariyat hindistonliklar ingichka zig'ir tolasidan to'qilgan matoli kiyim kiyib yurishgan. Shu bilan birga ular boshlarini soyabon yordamida quyoshdan saqlab yurganliklari[9] ta'riflanadi. O'z navbatida qadimgi hindlar haqiqat va mardlikka hurmat bilan munosabatta bo'lishgan. Podsho Chandraguptani shaxsiy tan soqchilari va qo'shini saroy tashqarisiga joylashtirilgan edi. Mauriylar davlati hududida konfederativ poleoetnik mafkura hukum surgan edi.

Mil. av. 297-yil Pataliputrada taxtga Chandraguptaning o'g'li Bindusara (ayrim manbalarda Vindusara) chiqariladi. Unga Markaziy va Sharqiy Hindiston yerlari bilan bir qatorda, Janubiy Afg'oniston va Belujistonning bir qismi bo'ysunar edi. Uning davrida Hindistonda 16 davlat Muariylar imperiyasiga bo'ysindirildi. Mamlakat janubida joylashgan kelib chiqishi mahalliy dravidlardan bo'lgan Pandiya, Chera va Chola davlatlari Mauriylarga ittifoqchi bo'lganliklari tufayli o'z suverenitetlarini saqlab qolgan edilar.

Podsho Bindusara, otasi Chandragupta singari jaynizm(jaynizm falsafasi va amaliyoti, birinchi navbatda, hamma narsani bilish, qudratlilik va abadiy baxtga erishish uchun ruhni o'z-o'zini tarbiyalashga asoslangan)ni yuksaltirmadi. Yangi hukumdor ajivika(inson taqdiri inson harakatlariga bog'liq emasligiga ishongan darveshlar), ateistik va braxmanlarga qarshi falsafiy ta'limot tarafdori edi. Shunga qaramasdan otasining piri, faylasuf Chanakya uning bosh vaziri bo'lib qolaverdi. Ammo keyinchalik Subandhu ismli amaldorning noto'g'ri talqindagi ig'vosi tufayli bosh vazirlikdan voz kechib, uzlatka ketadi va ochlik e'lon qiladi. Bindusara esa qilgan ishidan afsuslanib, uni qaytib kelishini istab Subandxuni Chanakyaning oldiga yuborgan. Yangi vazir esa podsho buyrug'ni buzib, Chanakyaning tiriklayin yoqib yuborgan. Lekin ko'p o'tmay bosh vazir Subandhu ham lavozimidan ketadi.

Ashokavadana("Ashoka haqida hikoya" mil. av. II asr)da ta'kidlanishicha podsho Bindusaraning 500 maslahatchisi bor edi. Unda Xallataka va Radxagupta ismli ikki amaldor haqida so'z boradi. Ushbu saroy boyonlari Bindusara vafotidan keyin uning o'g'li Ashokani taxtga kelishiga yordam berganlar. Demak ko'p millatli konfederativ Maurya imperiyasini boshqarishda ulkan byurokratik appar mavjud edi.

Mil.av. 272-yil Bindusara vafotidan keyin imperiyada to'rt yil taxt uchun kurash natijasida fuqarolar urushi bo'lib o'tadi[10]. Bu kurashda Bindusaraning yoqtirmagan o'g'li mamlakat shimolidagi isyonchilar markazi bo'lgan Taksila shahri hokimi Ashoka, akasi Susima ustidan g'alaba qozonadi.

Ashoka o'z qo'shini bilan mil.av. 272-yil Pataliputraga kirib kelib, o'zini podsho deb e'lon qiladi. Poytaxtga taxtni egallash uchun Uddjayn viloyatidan uni hukumat rahbari vazir Radxagupta taklif qiladi. Ammo hokimiyat uchun kurash shahzoda Susima va uning tarafdorlarini to'liq mag'lubiyatiga qadar davom etdi. Rasman Ashoka(Devanampiya) Maurya imperiyasi taxtiga mil.av. 268-yil o'tiradi.

Davlat va fuqarolarini ravnaqi uchun Ashoka imperiya bo'ylab ko'p sayohat qiladi. Maishatbozlik va ov-shikordan voz kechib o'z vaqtini davlat ishlariga bag'ishlagan. Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki podsho buddaviylik diniga hurmati oshib borgan. Bu davrda podsho yerlari "rajavisayya" deb atalgan[12]. Mamlakatning muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish orqali u viloyatlarda amaldorlarni ishlarini taftish ham qilgan. Davlat ishlarida oddiy fuqarolarni majburiy mehnatga jalb qilishni bekor qiladi.

Imperiyaning ravnaqi uchun u mamlakat tabiatini avaylashni buyurgan. O'rmonlarga o't qo'yish va ko'ngilhushlik uchun hayvonlarni ovda nobud qilishni man etgan. Yo'l qurilishini butun imperiya bo'ylab tartibga solgan. Aholi sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash uchun shifoxonalar qurdirgan. Aholi yo'lda chiqmasligi uchun quduqlar qazdirgan[11]. Sanitariya vetenariya holatiga ham ahamiyat bergan.

Boy tabiatga ega bo'lgan Hindiston tabobati o'z dorivor o'simliklari bilan o'sha zamonda ham dunyoga mashhur edi. Ashoka dorivor o'simliklar va minerallarni mamlakat tashqarisiga eksport qilish uchun shart-sharoit yaratib bergan. Shu bilan birga dexqonchilikni rivojlan tirish va transport masalasini yechimini hal etish uchun kanallar qazdirgan.

Imperiya fuqarolarini ma'naviy tarbiyasiga oid qator farmoyishlar va qonunlar qabul qilgan[13]. Amaldorlarga nasihat qilib, fuqarolar uchun podsho ko'p yaxshilik qilganligini ta'kidlaydi. Bu haqida 1958-yilda Afg'onistonning Qandaxor shahri yaqidagi Chexel Zina tog'idan topilgan ikki tilda (oramiy va yunon) yozilgan bitiglar ma'lumot beradi.

Demak, Mauryalar imperiyasining shimoliy chegaralari hozirgi Afg'onistonning janubiga qadar borib taqalgan. Bu yerdagi erniy aholi esa ma'muriy boshvaruvda oramiy va yunon yozuvidan foydalangan. Salavkiylar imperiyasi tarkibidagi Baqtriya satrapligi janubda ko'p millatli Mauryalar davlati bilan bevosita chegaradosh bo'lgan. Ammo ellin dunyosining ta'sir doirasi aynan shu yerda qadimgi hind sivilizatsiyasi bilan to'qnashgan. Ashoka davrida imperiya boshqaruvi uchun bir-necha diniy mafkuralarni yahlit tizimga solish prinsipi hali to'liq ishlab chiqilmagan edi. Bu jarayon keyinchalik milodiy I asrda Kushon imperiyasi davrida, Mauryalar tajribasidan foydalanish orqali nisbatan mukammal shaklga keldi.

Mil.av. 232-yil Ashoka vafotidan keyin uning davlati ikkiga Sharqiy va G'arbiy Mauryalar davlatiga bo'linib ketadi. Sharqiy imperiyaning poytaxti Pataliputra, G'arbiy imperiyaning markazi Uddjayn bo'lib qoladi. Rasman imperiyani boshqaruvi Suyasasa(Ashokaning o'g'li)ning farzandi Dasharatxani qo'l ostiga o'tadi. Sharqiy Maurya davlati markaziy hokimiyatni saqlab qolishga urinib ko'radi. Ashokaning boshqa nabirasi Samprati G'arbiy imperiyani o'z nazoratiga oladi. Ammo ko'p o'tmay bu ikki davlatlar ham kichik rojaliklarga parchalana boshlaydi. Birinchi bo'lib G'arbiy Maurya davlatidan Kashmir viloyatini, podshoning tog'asi Djalauka ajratib oladi. Uning ortidan Shimoldagi Gadaxrani shahzoda Virasena boshchiligidagi imperiya tarkibidan ajralib chiqadi. Dasharatxaning qo'l ostida Magatxa mulklari qoladi holos. Janubiy Hindistondagi Satavaxanalar davlati Maurya imperiyasining vassallari podsho Ashokani vafotidan keyin amalda Pataliputradagi hukumatga bo'ysunmay qo'ygan edi.

Milloddan avvalgi 185-yilda kelib chiqishi braxmanlarning Bxardvadji Gotra mashabidan bo'lgan Pushyamitra Shunga (mil.avv. 185-148 yy) so'ngi Maurya hukumdori Brixadratxani jangda yengadi. Shu tariqa Mauriyalar sulolasi tugatiladi[14]. Oqibatta Mauriyalar davlatining parchalanishi kuchayib ketadi. Ayniqsa bu jarayon G'arbiy Maurya podsholigida kuchayib, mamlakat mayda rojaliklarga bo'linib ketadi.

Shimoliy Hindistondagi geosiyosiy vaziyat keskinlashadi. Natijada mil.av. 180-yil qulay vaziyatdan foydalangan Yunon-Baqtriya podshosi Demetriy I (mil.av. 199-170 y) sobiq G'arbiy Maurya konfederatsiyasi rojaliklari hududiga bostirib kiradi. Yunon-Baqtriya davlati Araxoziya va Panjob yerlarini bosib oladi. Tarixchi Mark Yunian Yustinning ma'lumotlariga ko'ra Demetriy I endi hindlar podshosi sifatida tilga olinib, uning qo'shinini 60 ming kishidan iboratligi ta'kidlanadi[15]. Hukumronligining dastlabki yillarida Demetriy I butun Baqtriya bo'ylab ta'siri kuchli bo'lgan edi. Ammo uning Hindiston yerlariga kirib borishi davrida metropoliya bilan aloqalar uzoqlashadi. Ayniqsa Shimoliy Baqtriya yerlarida podsho Demetriy I ning hokimiyati sust bo'lgan. Bunga numizmatik ma'lumotlar guvohlik beradi[16]. Shungalar sulolasi Shimoli G'arbiy Hindistonni yavan(yunon-baqtriya xalqi)larga boy berishgach, bu yerda buddaviylikni yangi shakli "yunon-buddizm" kurtak otadi. Gandxaradagi yavanlar buddaviylikda haykaltaroshlik

san'atiga katta e'tibor beradilar. Uning mafkuraviy mohiyatini qayta jonlashtiradi. Ayrim yunonlar asta-sekin buddaviylik ta'limotiga ergashadi. Hindiston yerlari hukumdori sifatida Demetriy I dubulg'asini fil tasvirida o'z tangalarida zarb ettirgan.

Milloddan avvalgi 172-yil Baqtriyada strateg Yevkratid markaziy hokimiyatga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Bu payt Demetriy I asosiy qo'shin bilan Shimoliy Hindistonda edi[17]. Shimoldan ko'chmanchi sak va dax qabilalarining kuchayishi oqibatida Baqtriya havf ostida qoldi. Natijada Yunon-Baqtriya podsholigi janubga bo'lgan ekspansiyadan voz kechishga majbur bo'ladi. Hind olimi Avad Kishor Narayn ham shu fikrni targ'ib etadi[18].

Xulosa. Ekspansiyaning markazi bo'lgan Baqtriya, noib Yevkratid boshchiligidagi alohida davlat sifatida ajrab chiqadi. Shimoliy Hindistonni zabt etishga ketgan yunon-batriyaliklar qo'shini esa podsho Demetriy I boshchiligidagi Yunon-hind davlatini tuzishadi. Baqtriyaliklarga boshchilik qilgan yunon elitasi Gandxara (Shimoliy Hindiston) hududida buddaviylikka katta e'tibor beradi. Kasta tizimini asosi bo'lgan induizm, buddaviylik jamiyatiga raqobatchi hisoblangan. Ammo mahalliy xalqni boshqarish uchun siyosatda har ikkovi mafkuraviy vosita sifatida hukmron elita tomonidan foydalanilgan. Shu tariqa Yunon-Baqtriyalik(yavan)lar Hindiston sivilizatsiyasini yangi bosqichga olib chiqishda muhim o'rin egalladi.

ADABIYOTLAR

1. Mookerji R.K. Chandragupta Maurya and his times. - Delhi 1988. P. 171.
2. Памятники письменности Востока. LXXXVII. Миаиндапаньха. Перевод с пали Парибка А.В. – Москва 1989. С. 271.
3. Ўша жойда. 427 бет.
4. Страбон. География. В 17 книгах. – Москва, 1964. – С.672-673.
5. История государства и права зарубежных стран. Под.ред. О.А. Жидкова. - Москва. 1996.- С 8.
6. Махабхарата. Выпуск III. Перевод, введение, примечания и толковый словарь академика АН ТССР. Смирнова Б. Л. Издательство АН ТССР. Ашхабад. 1957. С.326.
7. Маламуд Ш. Испеч мир. Ритуал и мысль в древней Индии. «Восточная литература» РАН. - Москва. 2005. - С. 253.
8. Страбон. География. В 17 книгах. – Москва, 1964. – С.659.
9. Страбон. География. В 17 книгах. – Москва, 1964. – С.660.
10. Nath Sen. S. Ancient Indian History and Civilization. – New Delhi. 1999. P. 142-143.
11. Бонгард-Левин Г. М, Бухарин М.Д. Вигасин А.А. Индия и античный мир. - Москва 2002. С. 211-212.
12. Бонгард-Левин Г.М, Бухарин М.Д. Вигасин А.А. Индия и античный мир.- Москва 2002. С. 96.
13. The Edicts of King Asoka. An English rendering by Ven. S. Dhammika. 2001. P 5.
14. Rachel Mairs. Graeco-Bactrian and Indo-Greek world. – London and New York. 2021. P. 38.
15. Эпитома сочинения Помпея Трога «Histsriae Philippicae» / Пер. с лат. А. А. Деконского, М. И. Рижского; Под ред. М. Е. Грабарь-Пассек; Комментарии К. В. Вержбицкого, М. М. Холода; Вст. ст.к. К. Зельина. – Санкт-Петербург, Изд-во С.– Петерб. ун-та, 2005. С. 324.
16. Ртвеладзе. Э.В. Пидасев Ш. Р. Каталог древних монет Южного Узбекистана. Изд. Фан. – Ташкент. 1981. С.18.
17. Зеймаль Е.В. Древние монеты Таджикистана. Изд. Дониш. – Душанбе. 1983. С. 45.
18. Юстин Марк. Эпитома сочинения Помпея Трога «Historiae Philippicae». Вступительная статья К. К. Зельина. Комментарии К. В. Вержбицкого, М. М. Холода – Санкт-Петербург. 2005. С. 324.



UDK: 9.433.

Farrux DILMURODOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistent o'qituvchisi
E-mail: farrukhdilmurodov@gmail.com

Prof, t.f.d O.Rashidov taqrizi asosida

REASONS FOR THE EMERGENCE OF ECONOMIC IMPAIRMENT IN THE UZBEKISTAN SSR DURING THE PERIOD OF "RECONSTRUCTION"

Annotation

This article presents information about the changes in the economic sectors implemented in the Uzbek SSR during the period of perestroika and the shortcomings that were made in these areas. The administrative management system, instead of stimulating effective economic activity, created uneven and adverse effects on the distribution of resources, which led to the cessation of economic growth and serious difficulties in the effective management of production processes. In particular, the article describes in detail the attitude of the cotton policy towards the reform of the restructuring of society, the issue of national relations during this period, the shortcomings of the socialist economy and efforts to reform it, and the shortcomings in the fields of agriculture and animal husbandry. The political and economic problems that arose during the reforms led to a deepening of the socio-political crisis in the country.

Key words: Reconstruction, M.Gorbachev, administrative division, cotton, economy, unfavorable relations, agriculture, economic crisis, national relations, low wages.

ПРИЧИНЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО УЩЕРБА В УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР В ПЕРИОД ПЕРЕСТРОЙКИ

Аннотация

В статье дается информация об изменениях в отраслях экономики, осуществленных в Узбекской ССР в период перестройки, и недостатках, допущенных в этих отраслях. Вместо того чтобы стимулировать эффективную экономическую деятельность, система административного управления создала неравенство и негативные последствия в распределении ресурсов, что привело к замедлению экономического роста и серьезным трудностям в эффективном управлении производственными процессами. Политические и экономические проблемы, возникшие в ходе реформ, привели к углублению социально-политического кризиса в стране. В частности, в статье подробно описывается связь хлопковой политики с реформами социальной перестройки, проблема национальных отношений в этот период, недостатки социалистической экономики и попытки ее реформирования, недостатки сельского хозяйства и животноводства.

Ключевые слова: Перестройка, М.Горбачев, административное деление, хлопок, экономика, неблагоприятные отношения, сельское хозяйство, экономический кризис, национальные отношения, низкая заработная плата.

QAYTA QURISH DAVRIDA O'ZBEKISTON SSRDA IQTISODIY TANGLIKNING VUJUDGA KELISH SABABLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada qayta qurish davrida O'zbekiston SSRda amalga oshirilgan iqtisodiy sohalardagi o'zgarishlar va ushbu sohalarda yo'l qoyilgan kamchiliklar haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Ma'muriy boshqaruv tizimi samarali iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish o'miga, resurslarni taqsimlashda notekislik va noxush ta'sirlar keltirib chiqardi, bu esa iqtisodiy o'sishni to'xtatishga va ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarishda jiddiy qiyinchiliklarga olib keldi. Islohotlar davomida yuzaga kelgan siyosiy va iqtisodiy muammolar mamlakatda ijtimoiy-siyosiy inqirozning chuqurlashishiga sabab bo'ldi. Jumladan, paxtachilik siyosatidagi qo'shib yozishlar jamiyatni qayta qurish islohotiga bo'lgan munosabati, bu davrdagi milliy munosabatlar masalasi sotsialistik iqtisodiyotdagi kamchiliklar va uni isloh etishga bo'lgan harakatlar, dehqonchilik va chorvachilik sohalari haqidagi kamchiliklar batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Qayta qurish, M.Gorbachyov, ma'muriy-taqsimlash, paxta, iqtisodiyot, salbiy munosabatlar, qishloq xo'jaligi, iqtisodiy inqiroz, milliy munosabatlar, kam ish haqi.

Kirish. Qayta qurish iqtisodiy tizimni isloh qilishni anglatardi. Sovet Ittifoqining markazlashtirilgan va rejalashtirilgan iqtisodiy tizimi, iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda muammolarni keltirib chiqardi. M.Gorbachyov iqtisodiy islohotlar doirasida bozor iqtisodiyotining ba'zi unsurlarini joriy qilish, xususiy sektorni rivojlantirish va davlat tasarrufidagi korxonalar samaradorligini oshirishga intildi[1]. Sovet tuzumi sharoitida davlat mulki monopoliyasi va ma'muriy-taqsimlash tizimi hukmronligi tobora kuchayib bordi. Bu holat ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarining sekinlashishiga, yalpi mahsulot hajmining pasayishiga va

mehnat unumdorligining sezilarli darajada kamayishiga olib keldi. Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalari va mehnat natijalariga nisbatan begonalashuvi yanada chuqurlashdi. Respublikada vaziyat ancha murakkab, buning sabablari borki odamlar qayta qurish mohiyatini shubha ostiga olmasalar-da, uning natijalaridan haqli ravishda qoniqmayaptilar, ular kutishdan charchaganlar. Ana shunday sharoitda har xil kuchlar jonlanib vujudga kelayotgan qiyinchiliklar va noroziliklardan foydalanib ommani partiya, sovet, xo'jalik organlariga qarshi qo'yishga urinmoqda.

Millatlararo munosabatlarning o'tkirligi hamda provard natijada ijtimoiy-siyosiy keskinlik birinchi navbatda shu bilan izohlanadi, respublikamizda yashavchi, ayniqsa qishloqda istiqomat har bir oila, har bir kishi, millatidan qat'i nazar, yildan-yilga, kundan-kunga yashash, normal hayot kechirish uchun zarur bo'lgan narsalar bilan o'zini ta'minlash qiyin bo'lib borayotganligini his etmoqda. Ma'muriy boshqaruv tizimi samarali iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish o'rniga, resurslarni taqsimlashda notekislik va noxush ta'sirlar keltirib chiqardi, bu esa iqtisodiy o'sishni to'xtatishga va ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarishda jiddiy qiyinchiliklarga olib keldi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy manbalarni tahlili shuni ko'rsatadiki, usha davrda mehnat unumdorligining ko'rsatkichlari keskin yomonlashdi, natijada fondlar hisobidan olinadigan foyda ham sezilarli darajada kamaydi[2]. Ushbu davrga oid adabiyotlarda Alexandr Yakovlev – Sovet Ittifoqida liberal islohotlarni amalga oshirishga harakat qilgan olimlardan biri sifatida mashhurdir. U, ayniqsa, «glasnost» (ochiqlik) siyosati va uning siyosiy ta'siri haqida ilmiy ishlar olib borgan. U Gorbachyovning yaqin hamkori bo'lgan va Sovet siyosatidagi o'zgarishlarga katta ta'sir ko'rsatgan. Vadim Medvedev esa, Sovet iqtisodiyotining islohoti va uning iqtisodiy ta'siri haqida bir nechta tadqiqotlar olib borgan. U perestroika jarayonidagi iqtisodiy tizimdagi o'zgarishlarni tahlil qilishda muhim rol o'ynagan. Jahonda Stephen F. Cohen – AQShlik olim, Sovet Ittifoqining siyosiy va ijtimoiy tizimlari, shuningdek, perestroika va glasnost siyosatlari haqida keng qamrovli ilmiy ishlar olib borgan. Uning «Sovet Ittifoqi: Bir Imkoniyatlar va Krizislar Tarixi» (1990) kitobi juda mashhurdir. Bundan tashqari, Robert Conquestni ham keltirib o'tish joiz. U Sovet Ittifoqining tarixini o'rganish bo'yicha ko'plab asarlar yozgan, jumladan, uning perestroika davridagi tahliliga ham alohida e'tibor bergan. Respublikamizda M.Shodiyev, R.Fayzullayevlar ushbu mazvuga oid ilmiy izlanishlar olib borganlar. Yuqoridagi ilmiy adabiyotlar bizga o'sha davrni tahlil qilib, yanada kengroq tushinishimizga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarixni o'rganish metodikasi sifatida sotsiologik, mantiqiy-eksperimental, tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, statistik tahlil, arxeologik ilmiy manbalar, o'quv-metodik adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, kuzatish, SWOT tizimli tahlili, funksional va adabiy tahlil usullari asosida ko'rib chiqildi.

Tahlil va natijalar. Paxtachilik respublika ekonomikasining asosiy tarmog'idir. Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, nafaqat dehqonlar, balki respublikaning barcha mehnatkashlari farovonligi shu sohadagi muvofaqiyatlarga bog'liq [3]. Xalq sug'oriladigan dehqonchilikda, paxta yetishtirishda boy tajriba to'plagan. Odamlar umumdavlat ahamiyatiga ega paxta siyosatiga bor kuch-quvvatlarini safarbar etishgan. Biroq paxtachilik rivojidagi sustkashlik nafaqat respublika shu bilan birga butun mamlakat ekanomikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. 1984-1988 yillarda respublika bo'yicha o'rta hisobda 5million 200 ming tonna, ya'ni bundan o'n yil oldingi miqdorda xom ashyo yetishtirildi. 1988 yilda har gektardan bor-yog'i 24,3 sentner paxta olindi. 307 kolxoz va sovxoz yoki xo'jaliklarning to'rtidan bir qismida hosildorlik 20 sentner va hatto bundan ham kam bo'ldi [4]. Paxta narxini oshirish masalasi ko'pdan beri yetilgan edi, lekin manfaatdor organlar bu muammoga jiddiy va ilmiy asoslangan holda yondashgan emaslar. Narxarni qanchaga va nima uchun ko'paytirish kerakligi masalasida yagona, puxta o'ylab ko'rilgan taklif hozirga qadar ham yoqlig'i shu bilan izohlanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxi va qishloqqa yetkazib berilayotgan sanoat mahsulotlari o'rtasidagi narxlarning adolatli nisbati buzulganligi ko'pdan buyon ma'lum. Umuman qishloqlarning ahvoli muayyan darajada paxta bilan bir qatorda, boshqa

ko'pgina mahsulotlarning ham xarid narxi asossiz ravishda pastligi bilan izohlanadi[5].

O'zbekiston aholisining turmush darajasi hozirgi kunda past darajada qolmoqda. Jon boshiga to'g'ri keladigan daromad, oziq-ovqat xavfsizligi, kundalik ehtiyoj mollarini iste'mol qilish, uy-joy, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalar bo'yicha mamlakat jahonning ko'plab rivojlangan davlatlariga nisbatan orqada turadi. Bu holat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasining rivojlanishidagi kamchiliklar, resurslar taqsimotining samaradorligi va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning tezligi va kengligi bilan bevosita bog'liq. Bunday muammolarni hal qilish uchun iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ijtimoiy sohalarda samarali islohotlarni amalga oshirish hamda resurslarni adolatli taqsimlash zarurati mavjud. O'zbekistonning ijtimoiy tizimlarini rivojlantirish, aholining turmush sharoitlarini yaxshilash, shuningdek, qishloq hududlarida aholining iqtisodiy va ijtimoiy holatini yaxshilash hamda barqaror o'sish modelini joriy etish muhimdir[6]. Mamlakatda iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishi paxtachilikka qaratildi, bunda paxtadan yuqori hosil olishga katta e'tibor berildi. Natijada, ijtimoiy hayotning boshqa sohalarini rivojlanishida sezilarli orqaga ketish kuzatildi. Eng achinarlisi shundaki, paxta yetishtirish jarayonida mehnatning 84 foizi xalqimiz zimmasiga tushgan bo'lsa-da, dastlabki qayta ishlashdan olinadigan daromadning faqat 16 foizi ularga tegdi[7.238]. YA'ni mehnati O'zbekiston mehnatkashlarini, daromaddan olingan foyda markazniki bo'ldi.

Ishlab chiqarishdagi noreallik oqibatida paxtakor dehqonlar rejani bajarish yo'lida kuniga 12-16 soatlab mehnat qilishar, dam olish va bayram kunlarida ham ishlashga majbur bo'lardilar. Shunga qaramasdan, dehqonlarning mehnati juda past baholandi. Markaziy hukumat 1990-yildan boshlab, shu vaqtgacha kolxozga paxta yetishtirish uchun to'langan 1 kilogram paxta uchun beriladigan 1 so'm miqdorini faqat 32 foizga oshirishga qaror qildi. YA'ni, 1 so'mning qiymati 32 tiyinga teng bo'ldi. Paxtakorlar yil davomida, ya'ni 12 oy davomida dalada mehnat qilishar edi. "Oq oltin"ning bir tonnasi jahon bozorida 30 ming AQSH dollariga teng bo'lganda, O'zbekiston SSRda uning har tonnasiga (tola hisobida) faqat 3-3,5 ming so'm to'lanardi, ya'ni, paxtaga sotilganidan qariyb 15 barobar kam haq to'langan[8]. Bu borada olib borilgan agrar siyosatining mohiyati, xususan, sug'oriladigan yer maydonlarining keskin kengaytirilishi, suv resurslaridan nooqilona foydalanish, paxta yakkahokimligining natijasi sifatida "Orol muammosi" degan global muammo ham kelib chiqdi.

Xalqimiz sug'oriladigan dehqonchilikda, paxta yetishtirishda boy tajriba to'plagan. Odamlarimiz umumdavlat ahamiyatiga ega oq oltinni so'nmas mehr-muhabbat, Jo'shqin qalb, behad e'tiqod, zo'r ixlos, toza vijdon bilan, kuch-quvvatlarini va mahoratlarini sira ayamay yetishtiradilar. Ushbu raqamlar qishloq xo'jaligi mehnatkashlarining, ularning tinimsiz va yil davomida dalada bajaradigan og'ir mehnatlari qadrsizligini ko'rsatadi. Bu holat paxtakorlarning iqtisodiy ahvoli va mehnat sharoitlarining jiddiy e'tiborsiz qilinganini hamda mehnat haqlarining nisbatan past darajada qolayotgan[9].

Xulosa. Shuni ta'kidlash kerakki, Qayta qurish SSSR iqtisodiyotini orqaga qolishiga juda kuchli ta'sir qildi. Bu ta'sir O'zbekiston SSR iqtisodiyotini ham chetlab o'tmadi. O'zbekiston iqtisodiyotining, shu jumladan, sanoat tarmoqlarining rivojlanishi ma'muriy buyruqlar asosida amalga oshirildi. O'zbekiston aholisining turmush darajasi nihoyatda past bo'lib, jon boshiga daromad, oziq-ovqat va har kunlik ehtiyoj mollarini iste'mol qilish, uy-joy, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, umuman ijtimoiy sohaning barcha tarmoqlari bo'yicha ittifoqda oxirgi o'rinlardan birida turgan. Bu esa o'z navbatida, ishlab chiqarish samaradorligining

pasayishiga va iqtisodiy o'sishning kamayishiga olib keldi. Paxtachilik O'zbekiston SSRning ekonomikasining asosiy tarmog'idir. Mehnatkashlar umumdavlat ahamiyatiga ega paxtani so'nmas mehr-muhabbat, bor kuch-quvvatlarini ayamadan jo'shqin ehtiyoj, toza vijdon, zo'r ixlos, behad e'tiqod, bilan, mahoratlarni sira ayamay yetishtiradilar. Paxta narxini oshirish masalasi jiddiy va ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi. Paxtakorlarning daromadlari uzoq vaqtdan buyon nisbatan past bo'lib, bu ularning iqtisodiy

ahvolini yomonlashtirgan. Narxlar va xarajatlar o'rtasidagi disbalans, shuningdek, sanoat mahsulotlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari orasidagi narx farqlari muammoni yanada kuchaytirmoqda. Paxta narxining oshirilishi, faqat iqtisodiy jihatdan foyda keltirmay, balki qishloq aholisi va paxtakorlarning turmush sharoitlarini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Paxtakorlar uchun adolatli narxning belgilanishi, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi va qishloq xo'jaligi sektorini rivojlantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Т., Шарқ, 2000. Бб. 13-14.
2. Духовний В. Сув – ҳаёт, зарурият. – “Ўз АС”, 1986, 16 май.
3. Еркинов А. Ижтимоий масала муҳим муаммодир. – “Қашқадарё правда”, 1986 йил, 27 июн.
4. Вдовина В., Исмоилов Р. Қайта қуриш шароитида иқтисодий ва миллий муносабатлар Тошкент. – 1990 Ўзбекистон ССР “БИЛИМ” жамияти 3 – б.
5. Вдовина В., Исмоилов Р. Қайта қуриш шароитида иқтисодий ва миллий муносабатлар Тошкент. – 1990 Ўзбекистон ССР “БИЛИМ” жамияти 11 – б.
6. Қосимова М.Х. Советларнинг маданий-маърифий муассасалар фаолиятига раҳбарлиги. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1991. – №1, – Б.41-42.
7. Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. 3-жилт. – Т.: Шарқ, 2010. – Б. // Совет Ўзбекистони. – 1989. – 31-март.
8. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б.238.
9. Рахматова Д.. XX аср 50–80-йилларида совет давлатининг Ўзбекистонда пахта яккахокимлиги сиёсати ва унинг оқибати (Қашқадарё вилояти мисолида) диссертация – Б.147.



UDK: 02:9(575.141)

Sharofat JIYANBEKOVA,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: sharofatjiyanbekova@gmail.com
Orcid: 0000-0003-2219-2990

O'zbekiston Milliy universiteti professori, t.f.n Z.Saidboboyev taqrizi asosida

1970 – 1991 YILLARDA SAMARQAND VILOYATIDA KUTUBXONA ISHI TARIXI (A.S.PUSHKIN NOMIDAGI SAMARQAND VILOYAT AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI MISOLIDA)

Аннотация

Ushbu maqolada A.S.Pushkin nomidagi Samarqand viloyati kutubxonasi tarixi arxiv manbalari va boshqa birlamchi tarixiy manbalarga tayangan holda yoritilgan. Yurtimizda Sovetlar hokimiyati davrida madaniy-ma'rifiy hayotda amalga oshirgan siyosati, ayniqsa kutubxonalarni rivojlantirish ishini eng asosiy maqsadga aylantirgani qat'iy ta'kidlangan. Tarixshunoslik masalalari va adabiyotlar tahlili asosida, 1970-1991 yillarda Samarqand viloyati kutubxonalarining rivojlanib, kitob fondlarining ortib borganligi xulosa qilindi.

Kalit so'zlar: Samarqand kutubxonalari, kitob, kutubxona, kutubxona katalogi.

HISTORY OF LIBRARY WORK IN THE SAMARKAND REGION IN 1970 – 1991 (ON THE EXAMPLE OF THE SAMARKAND REGIONAL INFORMATION AND LIBRARY CENTER NAMED AFTER A.S. PUSHKIN)

Annotation

This article covers the history of the Samarkand regional library named after A.S. Pushkin based on archival sources and other primary historical sources. It is strongly emphasized that the policy implemented in the cultural and educational life of our country during the Soviet era, especially the development of libraries, was the main goal. Based on historical issues and literature analysis, it was concluded that the libraries of the Samarkand region developed and their book collections increased in 1970-1991.

Key words: Samarkand libraries, books, libraries, library catalog.

ИСТОРИЯ БИБЛИОТЕЧНОГО ДЕЛА САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ В 1970 – 1991 ГГ. (НА ПРИМЕРЕ САМАРКАНДСКОГО ОБЛАСТНОГО ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНОГО ЦЕНТРА ИМЕНИ А.С. ПУШКИНА)

Аннотация

В статье рассматривается история Самаркандской областной библиотеки имени А.С. Пушкина на основе архивных источников и других первоисточников. Особо подчеркивается, что политика, проводившаяся в культурно-образовательной жизни нашей страны в советское время, особенно развитие библиотечного дела, была главной целью. На основе анализа исторических вопросов и литературы сделан вывод о том, что в 1970-1991 годах библиотеки Самаркандской области развивались, а их книжные фонды увеличивались.

Ключевые слова: библиотеки Самарканда, книги, библиотеки, библиотечный каталог.

Kirish (Introduction). Sharqning ilm-fan va madaniyat markazi bo'lgan Samarqand tarixi bugun nafaqat yurtimizda, qolaversa dunyoda yirik ilmiy-tadqiqot markazlarida o'rganilmoqda. AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, Yaponiya, Turkiya va boshqa ko'plab rivojlangan mamlakatlar shular jumlasidandir.

Bugun dunyo davlatlari taraqqiyoti va rivojlanishida ilm-fanning g'oyatda zarur ekanligini anglab, kelajak avlodlarning yanada intellektual salohiyati yuksak bo'lishi uchun alosiy sarmoyasini ta'lim tizimiga sarflamoqda. Globallashuv va axborot asrida jahonda sohalar tezlik bilan rivojlanmoqda. Shu bilan birga katta global muammolar ham ko'payib bormoqda. Shu tufayli dunyo ahli bilimli va salohiyatli kadrlarga ehtiyoj sezmoqda.

Hozirgi kunda yurtimizda ham ilm-fanni yanada takomillashtirish va ta'lim tizimi sohasida katta islohotlar belgilandi. O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev o'z asarida "Yangi O'zbekiston barchamizniki ekanini, uning orzudan – haqiqatga, imkoniyatdan – voqelikka aylanishi bizga bog'liq ekanini aslo unutmaylik", degan fikrlari hozirgi zamon uchun, qolaversa har birimiz uchun dolzarbdur [1].

Ayniqsa mamlakatimizda kitob mutolaasi va kitob o'qish, kutubxonalar faoliyatini yanada takomillashtirish

borasida huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilinib, samarali ishlar olib borilmoqda. Shunga muvofiq davlatimiz rahbarining mamlakatimizda kutubxonalar, kutubxonashunoslik ishi va fanlari va kadrlar tayyorlash borasidagi qabul qilgan Qaror va ko'rsatmalari, ilmiy-nazariy g'oyalari hamda xulosalari maqolaning metodologik asosini tashkil etadi[2].

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tadqiqotda adabiyotlarning yetarlilik darajasi, mavzuning jahon tarixi bilan bog'liqligi dialektik va analitik tarzda yondashildi. Shuningdek, insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy istiqloq g'oyasiga asoslanish tamoyillari, milliy qadriyatlar, xalq an'analari va urf-odatlar, diniy e'tiqodlari, turli ijtimoiy tabaqalar, tarixiy- madaniy taraqqiyoti nuqtai nazaridan yondashuv nazariy- metodologik tamoyillar [3], tushunchalar mazmuni [4] tadqiqotni yoritib berishning asosiy kaliti hisoblanadi. Mavzuga doir tadqiqotlar sovet davri olimlaridan, E.K.Betger, A.I.Kormilitsin, A.Belovitskaya, N.Burov, G.Chabrov, V.Bartold, N. Rubakin, N. Sikorskiy, O. Chubaryan, N. Dobrinina, A.Konareva, N. Yaxontova, A.Sidorov; mustaqillik davrida esa O.G'.Qosimova, Z.Berdiyeva, E.Oxunjonov, M.Raximova, B.Karimov va boshqalarning tadqiqotlari, asarlarida o'lkada kutubxona va

o'quv xonalarining ochilishiga doir ma'lumotlar o'z aksini topgan [5].

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada tadqiq etilayotgan mavzuni o'rganishda tarixiy manbalar, arxiv ma'lumotlari va ilmiy adabiyotlarga tayanildi. Manbalardagi ma'lumotlarni mantiqiy jihatdan bog'lash jarayonida qiyosiy tahlil uslubidan foydalanildi.

- **Tahlil va natijalar.** 1911 yil 6 dekabrda Samarqandda taniqli arxeolog V.L.Vyatin tashabbusi bilan shahar Ommaviy kutubxonasi ochildi. Kutubxonaning dastlabki kitob fondi asosan turli tashkilotlar va fuqarolardan hadya tariqasida olingan 2 ming nusxaga yaqin adabiyotlardan iborat edi [6]. Shaharni bezab turgan inshootga 26 618 rubl sarflangan, u bir qavatli toshli bino bo'lib, o'z vaqtida faqat qiroatxona uchun mo'ljallangan. Bino maydoni 164 kv.metr, 390 kv.metri esa muzeyga ajratilgan.

Bino oddiy "romantik" namunaga ega bo'lib, u eklektikdir [7]. Bu ajoyib inshootning qurilishi bir nechta arxitektorlar: M.V.Chjitskiy-German, V.S.Geyntselman va G.M.Svarichevskiyga tegishlidir. Ulardan tashqari, kutubxona loyihasiga ba'zi tuzatishlarni qurilishlarni boshqargan I.P.Lebedev ham kiritgan.

Arxiv ma'lumotlarida esa kutubxona 1909 yilda tashkil etilgan deb qayd etilgan. Tadqiqotimiz tahlillari bo'yicha fikr yuritadigan bo'lsak, hujjatlarda qurilish ishlari boshlanadi. Lekin amalda qurilish ishi 1 yildan so'ng boshlanadi. Kutubxona esa 1911 yilda ochiladi [8].

Hisobot yilida kutubxonaning asosiy vazifasi KPSS MK qarorlariga muvofiq barcha sohalarida ish shakllari va usullarini yanada takomillashtirish va chuqurlashtirishdan iborat bo'ldi: kutubxonashunoslik bo'yicha /1974 yil /; "Mafkuraviy, siyosiy va tarbiyaviy ishlar to'g'risida / 1979 yil

/ KPSS Markaziy Komitetining KPSS XXVI qurultoyidagi loyihasi to'g'risida / 1980 yil noyabr / SSSRni 1981-1985 yillardan 1990 yilgacha iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanirishning asosiy yo'nalishlari " / 1980 yil dekabr. / [9;2].

Viloyat kutubxonasi kutubxonalarning Butunittifoq miqyosidagi ko'rik tanlovi, "Hukumat rahbarlari kabi yasha, mehnat qil va o'qi" nomli kitobxonlar konferensiyasi hamda KPSS XXVI-qurultoyini munosib kutib olish uchun o'tkazilgan Butun Ittifoq sotsialistik musobaqalarining faol ishtirokchisi bo'lgan.

Mafkuraviy muassasalar va boshqa bo'lim va toifadagi kutubxonalar bilan muvofiqlashtirish va hamkorlik qilish ishlari yanada maqsadli va jadalroq ishlar olib borildi.

1960-1980 yillarda viloyatdagi ommaviy kutubxonalar faoliyatini ilmiy, uslubiy va tashkiliy boshqarish sohasida asosiy faoliyat ko'rsatkichlarini takomillashtirish, alohida markaziy kutubxonalarni viloyat darajasiga tenglashtirish, ishning eng samarali shakl va usullarini joriy etish, barcha darajadagi kutubxona xodimlarining malakasini oshirish tendensiyasi davom ettiriladi.

Kutubxona tuzilishi haqida umumiy ma'lumotlarga qaraganda, 1970 yildan beri A.S.Pushkin nomidagi viloyat kutubxonasi 4609 kvadrat metr foydali maydonga ega standart binoda joylashgan. Hisobot yilidagi barcha xarajatlarda moddalari bo'yicha kutubxona budjeti 266 ming rublni tashkil etdi. 25048 kitobxon ro'yxatga olindi, ularga 520,3 ming kitob berildi, 1980 yilning III choragidan boshlab kutubxona ish haqi bo'yicha II-toifaga o'tkazildi. Biroq, bu boradagi yangi standart imlo jadvali faqat 1981 yil 1 yanvarda kuchga kirdi. Kutubxona xodimlari 80 nafar doimiy xodimdan, jumladan 55 nafar kutubxona xodimlaridan iborat edi. Kutubxona tarkibiga 7 ta bo'lim kiradi, jumladan:

№	Nomi	Soni
1	Ma'muriy-iqtisodiy bo'limi	28 kishi
2	Xizmat ko'rsatish bo'limi	17 kishi
3	Qabul qilish bo'limi	4 kishi
4	Qavta ishlash bo'limi	7 kishi
5	Yoshlar bo'limi	7 kishi
6	Qo'lyozmalar bo'limi fondi	2 kishi
7	Ma'lumotnoma-bibliografiya bo'limi	5 kishi
8	Buxgalteriya hisobi bo'limi	8 kishi
9	Uslubiy bo'lim	7 kishi

1. Ish rejasining asosiy ko'rsatkichlari va ularni amalga oshirishda quyidagilarni keltirib o'tmoqchimiz: kitobxonlar soni 2,5 ming nafarga, kitob nashriyoti 60 ming nusxaga ko'payib, 25048 va 52030 jildni tashkil etadi [9;3].


Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish bo'limida bir kutubxonachiga to'g'ri keladigan o'rtacha ish hajmi kitobxonlar soni bo'yicha 1000 nafardan ortiq, kitob nashriyot bo'limiga ko'ra, 21,5 ming nusxani tashkil etadi. 54,7 ming dona yangi kitob sotib olindi, bu esa bo'limining 1 ish o'rniga o'rtacha 13 ming donani tashkil qiladi va bu davlat meyoridan ikki baravarga ko'p.

Tadqiqot davrida Samarqand shahri aholisi 500 ming kishini tashkil etadi, shundan 55 ming nafari maktabgacha yoshdagi bolalarni tashkil qilgan. Shahar aholisiga 202 ta turli turdagi va bo'limlardagi kutubxonalar, jumladan, 90 ta jamoat kutubxonasi xizmat ko'rsatgan. Viloyat markazidagi

kutubxonalarning umumiy sonidan quyidagilar faoliyat yuritgan:

4-mintaqaviy (1 ko'zi o'jizlar uchun, 1 viloyat tibbiyot boshqarmasi) Markaziy bank tarkibiga 30 ta shahar, shu jumladan, 13 tasi bolalar, 56 ta kasaba uyushmalari, 10 ta texnik, 56 ta maktab o'quvchilari, 4 ta-ilmiy-tadqiqot muassasalari kutubxonalari, 17 ta texnikum kutubxonalari, 17 ta kasb-hunar maktabi kutubxonalari, 8 ta oliy o'quv yurtlarining kutubxonalari shular jumlasidandir. Statsioner bo'lmagan tarmoq shahar Markaziy kutubxonasi tomonidan tashkil etilgan 126 ta aylanma va tarqatish punktlaridan hamda shahardagi korxona, tashkilot va muassasalar qoshidagida 12 ta ommaviy kutubxonalardan iborat.

Birinchi ommaviy kutubxona o'rtacha 5 ming aholiga to'g'ri keladi, shu jumladan Madaniyat Vazirligi tizimidagi ommaviy kutubxonaga 6 ming kishi to'g'ri kelgan [10].



Har xil turdagi va bo'limlardagi 202 ta kutubxonada hisobot yilida 320 ming kitobxon ro'yxatga olinadi, ya'ni bu

Samarqand shahrida yashovchilarning 64 foizini tashkil etadi. Shahardagi 90 ta ommaviy kutubxonalarda kasaba

uyushmalari bilan birgalikda 122,5 ming kishi kitob o'qiydi, bu shahar aholisining 24,5 foizini tashkil etgan.

Hali kutubxonalar mavjud bo'lmagan, "Sag'diyona" turar-joy massivida shahar markaziy kutubxonasi tomonidan bibliobus uchun to'xtash joyi yani bekat tashkil etilgan [9;6].

Viloyat kutubxonasi kutubxonlariga quyidagi bo'limlar xizmat ko'rsatadi:


a) xizmat ko'rsatish bo'limi, ixtisoslashtirilgan zallari va uyga yetkazib berish bo'limlari bo'lgan 6 ta sektorni o'z

ichiga oladi (qishloq va texnik adabiyotlar sektori, gumanitar fanlar sektori, xorijiy adabiyotlar, MBA, shahar obuna va davriy nashrlar sektori);

b) o'quv zali va u yabonentidan iborat kompleks yoshlar bo'limi;

v) ma'lumotnoma-bibliografiya bo'limi;

d) musiqa va musiqa adabiyoti sektori negizida tashkil etilgan san'at bo'limi.



O'quv zalidagi umumiy kutubxonalar soni 500 ta. Kutubxonalar soni 2 ming kishiga ko'paydi. Hisobot yilida ularning 25 ming 48 nafari ro'yxatga olingan bo'lsa, shundan 23 ming nafari yagona kutubxona kartasi bilan ro'yxatga olingan.

Xalq xo'jaligi mutaxassislari kutubxonalarining umumiy sonidan eng katta kontingentni o'qituvchilar, ta'lim, madaniyat, ma'rifat xodimlari guruhi-2205 kishi, keyingi o'rinda xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari 947 nafar kutubxonalar, muhandis-texnik xodimlar 799 nafar, moliyaviy rejalashtirish va moliya sohasi xodimlari 450 nafar va nihoyat, 239 nafar partiya va sovet hokimiyatining yetakchi ishchilari tashkil etgan [11]. Kutubxonalarining millatlar bo'yicha tarkibi quyidagicha taqsimlangan: 13440 nafar o'zbek, 5453 nafar rus va 4107 nafar boshqa millat vakillaridan iborat bo'lgan.

Xulosa va takliflar. Sovet davlati hukumati o'lkamizda va Samarqand viloyatida kutubxonalar tashkil etishni juda katta maqsadlaridan biri deb belgiladi. Sababi o'z

g'oyalarini xalqimizning ongiga tezroq singdirishda kutubxonalarga asosiy maskan sifatida qarar edi. Tadqiqot natijalari shuni xulosalaydiki, qishloq aholisini ham kutubxonalar bilan qamrab olish ishlarini olib borganligini, dehqon uylari tashkil etganligini hujjatlarida o'qiydigan ideal shaxs, kitoblari esa asosiy kitob etib ko'rsatilib, yovonlarni to'ldirgan. Tadqiqot davrida kutubxonalarimiz esa ayniqsa Samarqand viloyatida ilm-fan rivojlangani uchun ko'proq aholini kutubxonalarga a'zo qilishni, shuningdek, kutubxonalar sonini ko'paytirish ishlarini amalga oshirdi. Kutubxona mutaxassislari va kadrlar malakasini oshirish kurslari ma'ruzalarida ham o'z mafkuralarini targ'ib qildi. Shu yillarda 1970-1991 yillarda Samarqand viloyatida kutubxonalar faoliyati ancha rivojlanib bordi. Ushbu kutubxonalarimiz faqat sovet xalqining mustamlakachilik siyosati va kommunistik g'oya bilan bog'liq mafkurasiga beqiyos xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: "O'zbekiston", 2024. – B. 7.
2. <https://lex.uz/ru/docs/-4372449>, <https://lex.uz/docs/-1769736>, <https://yuz.uz/uz/news/kutubxonalar-taraqqiyoti-kecha-va-bugun>.
3. Ахунджанов Э.А. Историка-типологическое исследование истории книги и книжного дела в Туркестане: древность средние века дис. ...д-ра.истор.наук. –Ташкент, 1998. – С. 376-408.
4. Беловицкая А.А., Омулячук С.П. Содержанию понятия "Советская книга" (Книга в процессе движения) // Советская истография книги.- М.: 1979. – С 123.
5. Олимжонов Х. Туркистонда кутубхона иши тарихи (1917-1917 йй). Тар. фан. бўй. фал. док. (PhD). ...дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 23-30
6. O'zMA I-18- fond, 1- ro'yxat, 8255- yig'ma jild, 9-varaq.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Eklektizm>. Eklektizm, eklektika (yunoncha: – tanlovchi)–turli xil, hatto bir-biriga qarama-qarshi qarash, g'oya, nazariyalarning "eng yaxshisi"ni tanlab olishga intilish. Dastlab so'nggi yunon falsafasida paydo bo'lgan. Eklektizm, turli uslublarning shakllarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llagan. XIX-asr 2-yarmi me'morchiligi (ayniqsa, interyerlarni bezash) uchun ham xos bo'lgan, biroq uning me'moriy va bezak eklektizmi o'zining keng ko'lami, mohiyati e'tibori bilan yaxlit bir "modern" uslubini shakllanishiga muhim ta'sir ko'rsatdi. XX-asr o'rtalaridan eklektizm an'analari G'arbiy Yevropa va Amerika badiiy madaniyatida keng tarqaldi.
8. Жиянбекова Ш.А. А.С.Пушкин номидаги Самарқанд вилояти кутубхона марказининг ташкил этилиши ва шаклланиши тарихи // "Sciencereproblems.uz. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари" № S/4(3)-2023. 2023-yil 4-maxsus soni. 43-51 b.
9. A.S.Pushkin nomidagi Samarqand viloyat axborot-kutubxona markazi arxivida saqlanayotgan "Информационный отчет Самаркандской областной библиотеки им. А.С.Пушкина за 1980 г., г. Самарканд". nomli hisobot to'plami.
10. Муртазеева Р.Х. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи (XIX аср II ярми – 1991 йил август). II жилд. – Тошкент, 2015. – Б. 457.
11. Библиографический указатель литературы о Самаркандской области. Вып. I. – Самарканд, 1970. – С. 428.



Sharofiddin MAMATOV,
Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: mamatov0766@gmail.com

GulDU dotsenti Q.Almanov taqrizi asosida

VILLAGE SETTLEMENT IN THE CHOCH OASIS IN THE HIGH MIDDLE AGES: A HISTORICAL- GEOGRAPHICAL ANALYSIS

Annotation

This article is devoted to the study of the rural settlements of the Choch (Tashkent) oasis in the High Middle Ages (IX-XII centuries) and the processes of their formation based on historical and geographical sources. The names of the villages mentioned in Chinese, Arab and Persian sources, their natural and geographical location, economic life, as well as the characteristics of the living environment of the population are analyzed. The article studies the ancient cities and villages in the basin of the Chirchik and Ahangaran rivers, the foothills of the Chatkal mountain range, their historical significance and toponymic features. The results of the research serve as an important source in illuminating the socio-economic and cultural development of the Choch oasis in the Middle Ages.

Keywords: Choch oasis, High Middle Ages, rural settlements, Chirchik, Ahangaran, Chatkal, toponymy, Arabic and Chinese sources, historical geography, Sogdian and Turkic toponyms.

ДЕРЕВЕНСКОЕ ПОСЕЛЕНИЕ В ОАЗИСЕ ЧОЧ В ВЫСОКОМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ: ИСТОРИКО- ГЕОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

Статья посвящена изучению сельских поселений Чочского (Ташкентского) оазиса и процессов их формирования в эпоху развитого средневековья (IX–XII вв.) на основе историко-географических источников. Анализируются названия деревень, упоминаемые в китайских, арабских и персидских источниках, их природно-географическое положение, хозяйственная жизнь, особенности среды обитания населения. В статье рассматриваются древние города и селения в бассейне рек Чирчик и Ахангаран, предгорьях Чаткальского хребта, их историческое значение и топонимические особенности. Результаты исследования служат важным источником для изучения социально-экономического и культурного развития оазиса Чач в средние века.

Ключевые слова: Чачский оазис, развитое средневековье, сельские поселения, Чирчик, Ахангаран, Чаткал, топонимика, арабские и китайские источники, историческая география, согдийские и тюркские топонимы.

RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA CHOCH VOHASIDAGI QISHLOQ AHOLI MASKANLARI: TARIXIY- GEOGRAFIK TAHLIL

Annotatsiya

Ushbu maqola rivojlangan o'rta asrlarda (IX–XII asrlar) Choch (Toshkent) vohasining qishloq aholi maskanlari va ularning shakllanish jarayonlarini tarixiy-geografik manbalar asosida o'rganishga bag'ishlangan. Xitoy, arab va fors manbalarida tilga olingan qishloqlar nomi, ularning tabiiy-geografik joylashuvi, iqtisodiy hayoti, shuningdek, aholi yashash muhitining xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada Chirchiq va Ohangaron daryolari havzasi, Chatqol tog' tizmasi etaklaridagi qadimiy shahar va qishloqlar, ularning tarixiy ahamiyati hamda toponimik xususiyatlari o'rganilgan. Tadqiqot natijalari Choch vohasining o'rta asrlar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini yoritishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Choch vohasi, rivojlangan o'rta asrlar, qishloq aholi maskanlari, Chirchiq, Ohangaron, Chatqol, toponimika, arab va xitoy manbalari, tarixiy geografiya, sug'diy va turkiy toponimlar.

Kirish. O'rta Osiyoning qadimiy va boy tarixga ega vohalaridan biri bo'lgan Choch (Toshkent) vohasi IX–XII asrlarda — rivojlangan o'rta asrlar davrida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan yuksalish bosqichini boshdan kechirgan. Bu davrda vohada ko'plab yirik shaharlar, qasaba va qishloqlar vujudga kelib, ularning ko'pchiligi o'zining tabiiy-geografik joylashuvi, sug'orish tizimlari va toponimik xususiyatlari bilan ajralib turgan. Ayniqsa, Chirchiq va Ohangaron daryolari havzasi hamda Chatqol tog' tizmasi etaklarida joylashgan aholi maskanlari Choch vohasining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan. Mazkur davr manbalarida, xususan xitoy yilnomalari, arab va fors tilidagi geografik asarlarda Choch vohasidagi qishloq aholi maskanlari haqida ancha mufassal ma'lumotlar berilgan. Ushbu manbalar orqali o'sha davrdagi qishloqlarning shakllanishi, aholining asosiy mashg'ulotlari, toponimik nomlarning etimologiyasi va ularning sug'diy hamda turkiy

tillarga mansubligi haqida qimmatli tarixiy-geografik ma'lumotlarni aniqlash mumkin. Ushbu maqolada aynan rivojlangan o'rta asrlarda Choch vohasida mavjud bo'lgan qishloqlar, ularning shakllanish omillari, tarixiy nomlanishlari va geografik joylashuvi haqida manba tahliliga asoslangan ilmiy mulohazalar bayon etiladi.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Choch vohasi Sirdaryoning quyi havzasida joylashib, vohaning sharqiy va shimoli-sharqiy qismlaridagi Tyanshan (Tangritog') tog'larining g'arbiy etaklaridagi tog' cho'qqilaridan boshlanuvchi Chirchiq, Ohangaron daryolari O'rta Sirdaryodagi yirik suv manbalari hisoblanadi. Ilk o'rta asrlarda Parak, "Turk daryosi" deb nomlangan Chirchiq daryosi G'arbiy Tyanshanning Chatqol tizmalaridan boshlansa, Iloq daryosi deb atalgan Ohangaron esa Chatqoldan birmuncha janubroqda – G'arbiy Tyanshan tog'larining biri bo'lgan Qurama tizmalaridan boshlanadi. Har ikkala daryo

Sirdaryo daryosining tarmoqlari sifatida ushbu daryoga quyiladi. Choch vohasidagi qadimgi aholi maskanlari ushbu daryolar qirg'oqlarida paydo bo'lib, ularning ayrimlari miloddan oldingi mingyillikning so'nggi asrlarida yirik shaharlarga aylangan. Ular orasida Chirchiq daryosi havzasidagi "Choch shahri", Ohangaron daryosining quyi havzasidagi Xarashket (Qanqa) shaharlari eng yiriklari hisoblanadi[1].

Choch vohasi islomdan oldingi davrlarda bo'lgani kabi birmuncha asrlar keyin, ya'ni rivojlangan o'rta asrlarda, O'rta Osiyoda arablar hukmronligi (VIII asrning o'rtalari – IX asrning ilk yarmi), Somoniylar (819-999) va Qoraxoniylar (960-1212) hukm surgan kezlarda ham ko'plab shahar va katta-kichik qishloqlarga ega hudud o'laroq bilingan. Dastlab xitoy yilnomalarida Shi, Shi-go ("Tosh davlati), Chje-she (Choch) ko'rinishlarida keltirilgan bu voha to'g'risida xitoylik rohib Syuan Tsan (629-645) quyidagicha yozgan: "Chje-shi mamlakatining aylanasi 1000 li (500 km) bo'lib, g'arbi Ye daryosi (Sirdaryo)ga tutashgan. (Ushbu mamlakatning) sharqiy va g'arbiy tomoni tomoni tor, shimoliy va janubiy tomoni esa kengdir. Tuprog'ining unumdorligi va iqlim sharoiti Nuchitszyan (Nuchket – Chimkent) mamlakati bilan bir xid. 10 ga yaqin shaharlari mavjud bo'lib, har birining alohida boshqaruvchisi bor. Umumiy bir hukmdori mavjud emas. Vassal sifatida Tukyue (Turk xoqonligi)ga tobedirlar"[2].

Ushbu ma'lumotdan Choch vohasida ilk o'rta asrlardayoq 10 ga yaqin shahar mavjud bo'lib, ularning har biri o'z boshqaruvchisiga ega ekaniga urg'u berilishi diqqatga sazovordir. O'sha kezlarda Sirdaryo havzasidagi Farg'ona, Xo'jand, O'tror, Isjifob (Sayram) kabi hukmdorliklarning ko'pchiligida shaharlar soni 2-3 atrofida, Farg'ona vodiysida 5-6 ta bo'lib, ular bilan bitta daryo havzasidagi Chochda shaharlar soni ulardan deyarli ikki baravar ko'p bo'lgani diqqatga sazovordir. Xitoy yilnomalaridagi ushbu ma'lumotlarni yilnomalardan 3-4 asr keyin yozilgan arab-fors manbalari ham tasdiqlaydi. Musulmon geograflari orasida ancha keng ma'lumotlar yozib qoldirgan Istaxriy o'zining "Kitob mamolik va-l-masolik" (O'lkalar va yo'llar kitobi) asarida (X asr) Shosh (Choch)ni quyidagicha ta'riflaydi: "Shosh va Iloq kengligi ikki kunga uch kunlik yo'ldir. Uning imoratlari va minbarlari bor qishloqlari, tekisliklarida o'tloqlari va ko'kalamzorlari ko'p. Shosh va Iloq shaharlarining darvozalari, devorlari, rabodlari, quhandzlari, daryolari bir-biriga tutashib ketgan"[3].

Ushbu ma'lumotdan anglashilicha, Choch vohasi Shosh (Choch) va Iloq deb ataluvchi ikkita siyosiy-ma'muriy qismni qamrab olib, vohadagi har bir shahar tashqi devor bilan o'ralib, shahar ichi rabod – hunarmandlar va savdogarlar yashaydigan qism, kuhandiz (ark) – boshqaruv markazi mavjud bo'lgan. Shuningdek, Chochdagi shaharlarning har biri biror bir suv tarmog'i (daryo, soy, ariq) bo'yida joylashgan edi. Har bir shahar atrofida o'nlab qishloqlarni o'z ichiga olib, rivojlangan o'rta asrlarda bunday aholi maskanlari o'zining "minbar" (jome masjidi), imorat (bino yoki hokimiyat binosi)ga ega edi.

Choch vohasining shahar va qishloqlari arab-fors geograflarini o'zining ekinzorlari, o'tloqlari, umuman olganda, obodligi bilan o'ziga tortgan. Voha bir tomondan tekislikda joylashib, keng ekinzorlari, sug'orish tarmoqlari – ariqlari bilan musulmon mualliflar diqqatini tortgan bo'lsa, boshqa tomondan esa tog' etaklaridagi yashil tabiat ularni hayratga solgan. Istaxriy asarining boshqa nusxalarida ushbu voha bilan bog'liq ma'lumotlar shu yo'sinda birmuncha kengroq keltirib o'tiladi: "butun Xuroson va Movarounnahrda suvlari va qishloqlari katta bo'lgan maydonga ega iqlim yo'q. Uning bir chegarasi Xorazm kichik dengiziga quyiladigan Shosh vodiysi, bir chegarasi u bilan Isbijab o'rtasidagi yaylovlari bo'lgan Qalas dashtidagi Bob al-Hadid, bir

chegarasi Shosh ma'muriy birligiga qarashli tog'lar. Faqat, tog'ga tutash obod erlar esa mustasno. Qolganlari esa alohida joylardir, bir chegarasi nasroniylar qishlog'i bo'lgan Vinkardgacha. Shosh tekislikda. Bu uzluksiz obod erlarda tog' ham, baland joy ham yo'q. U turklar tomonidagi eng katta chegaradir. Keng imoratlari paxsadan. Deyarli barcha hovlilarida suvlar oqadi. Uning bari yashillik bilan qoplangan Movarounnahrda eng go'zal joylardan. Uning qasabasi Binkat"[4].

Ushbu ma'lumotdan anglashilicha, Choch vohasi quyidagicha tabiiy sharoitga ega bo'lgan: tekisliklar va ulardagi aholi maskanlari, tog' va tog' etaklaridagi aholi maskanlari, yaylov va dashtlar. Istaxriy Choch vohasining chegaralarini shimolda Ispijob (Sayram)gacha bo'lgan oraliqdagi Bob al-Hadid, ya'ni "Temir darvoza" – Qalas (Keles) dashti, bir tomoni esa "Xorazm dengizi" (Orol)ga borib quyiluvchi "Choch vodiysi", ya'ni Sirdaryo daryosi, qolgan bir qismi esa tog'larga tutashgan hududlar edi. Istaxriy Choch vohasi haqida "Keng imoratlari paxsadan. Deyarli barcha hovlilarida suvlar oqadi" deb yozar ekan, vohaning shahar va qishloqlaridagi aholi uyalarini ko'zda tutgan ko'rinadi. Haqiqatdan ham Choch vohasiga hayot beran G'arbiy Tyanshan tog'laridagi Chotqol, Qurama tizmalaridagi ko'plab soylar tog' etaklaridagi o'nlab aholi maskanlarini suv bilan ta'minlab, har bir hovlidan o'tib, Chirchiq, Ohangaron kabi daryolarni hosil qilib, vohadagi qir-adirlardan o'tib tekislikdagi o'nlab shahar va qishloqlarda sug'orma dehqonchilik uchun keng sharoit yaratgan.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda tarixiy-geografik va tarixiy-toponomik yondashuv asosiy metodologik asos sifatida qo'llanildi. Choch vohasi qishloqlarining rivojlanish jarayoni, ularning tabiiy-geografik joylashuvi, tarixiy nomlanishi va aholi hayotidagi o'rni xronologik-tarixiy izchillikda tahlil qilindi.

- **Tahlil va natijalar.** Islom arafasida va rivojlangan o'rta asrlarda Chirchiq daryosi havzasida o'nlab shahar va yirik qishloqlar mavjud bo'lib, dastlab xitoy yilnomalarida, keyinroq esa sug'diy, arab va fors tilli yozma manbalarda tilga olinadi. Chirchiq daryosi havzasi bir necha qismlardan iborat o'laroq uning yuqorisida, ya'ni vohaning tog'lik qismida o'nlab aholi maskanlari – Nahnah (Nanay), Ardlankent (Burchmulla), Satbag'vo (Bog'iston), Xumbarak (Xumson), Kalashijak (Sijjak), Soyliq, Kurol (Kuzol – Gijol), G'azak (G'azal, G'azalkent), Kabarna (Kavardon) kabi yirik aholir maskanlari o'rin olgan edi. O'sha kezlardayoq yirik aholi maskani o'laroq bilingan Farnkat (Parkent) ham vohaning shimoli-sharqiy qismlarida, Chirchiq daryosining asosiy havzasidan birmuncha janubda joylashgan shahar sifatida edi. Parkent atrofidagi, undan birmuncha sharqda – tor tog' daralaridagi Suqoq, Zarkent, Sanginak, Nevich, Navdak, Namdanak kabi qishloqlar ham ilk o'rta asrlardayoq yirik aholi maskanlari bo'lib, ushbu qishloqlar va yana bir qanchasining ismi o'rta asr yozma manbalarida tilga olinsa-da, ancha oldin paydo bo'lgani aniq. Parkent atrofidagi o'nlab qishloq nomlarining sug'diy va turkiy vasfga egaligi bu qarashni qo'llab-quvvatlaydi. Ular qatoriga Parkent yaqinidagi, biroq bugungacha nomi saqlanib qolmagan Bag'vikas, Abradkas kabi shaharchalarni ham kiritish mumkin. Shuningdek, Parkent shahridan shimoli-sharqda – G'arbiy Tyanshan tog'laridan boshlanuvchi Parkentsoyning yuqori qismida, tog' etagida joylashgan Kumushkondan Parkentgacha bo'lgan oraliq masofada ham Hisorak, Changi kabi soy bo'yidagi qishloqlar ham Chirchiq daryosi havzasidagi aholi maskanlari sirasidandir.

Parkent shahri va atrofidagi ushbu qishloqlarning nomi qadimiy – sug'diy va qadimgi turkcha bo'lishiga qaramay, ular orasida faqat bir qismigina arab-fors tilli yozma manbalarda qaydi etilgan: Farnkat – Parkent, Namadvanak – Nomdanak. Shu jihatdan Parkentsoy va undan birmuncha

janubda, Chotqol qo'riqxonasining Qizilsoy bo'yidagi qismidan boshlanuvchi So'qoqsoy va Qizilsoy suv tarmoqlari bo'yidagi So'qoq, Sanginak, Nevich, Navdak qishloqlari nomi rivojlangan o'rta asrlarga tegishli arab-fors geograflari asarlarida deyarli tilga olinmagan. Ular orasida faqatgina Nomdanak qishlog'i nomi al-Muqaddasiyning "Ahsan at-taqosim fi ma'rifat al-aqolim" (Iqlimlarni o'rganish uchun eng yaxshi qo'llanma) nomli asarida (X asr) Namadvonak ko'rinishida eslatib o'tilgan[5].

Arab-fors geograflari orasida O'rta Osiyo vohalaridagi aholi maskanlari haqida keng va birmuncha to'liqroq ma'lumotlar yozib qoldirgan mualliflardan biri Ibn Havqal bo'lib, u o'zining "Surat al-ard" (Er yuzining surati) nomli asarida Choch vohasiga ham to'xtalib o'tadi. U keltirgan Chochdagi shahar va qishloq nomlari boshqa geograflar tilga olgan joy nomlari bilan bir xillikka ega. Shu bilan birga, ayrim aholi maskanlari nomida birmuncha farqliklar borligi, bu holat arab grafikasidagi nuqta almashinuvi natijasida yuz bergani ko'zga tashlanadi. Ibn Havqal "ash-Shosh", ya'ni Chirchiq havzasidagi aholi maskanlarini quyidagicha ko'rsatadi: Binkat, Danfag'onkat, Jinonjkat, Najokat, Banokat, Xarashkat, Ustibayg'u, Ardlonkat, Xudaynkat, Kankrok, Kalashjik, Barkanda, Banno, Jabuzan, Varduk, Kabarna, Badronk, Nujkat, Bazak, Abradkat, Bag'unkat, Barkush, Xotunkat, Jabg'ukat, Farankat, Kadok, Takolik[6]. "Surat al-ard"ni ilmiy nashr qilgan tadqiqotchilar ushbu aholi maskanlarining bir qismini bugungi kungacha saqlanib qolgan quyidagicha shahar va qishloqlar bilan tenglashtiradilar: Binkat – Toshkent, Danfag'onkat – Yo'g'ontepa (Yangiyo'l), Jinonjkat – Chinonchkat (Chinoz), Najokat – Ulja (Chirchiq daryosining Sirdaryoga qo'shiladigan joyida, Qolganchirchiq qishlog'i yonida), Banokat – Shohruhiya (Sharqiya), Xarashkat – Qanqa (Oqqo'rg'on t.), Barkush – Pargos (Pargostepa) va hokazo[7].

Chirchiq daryosining o'rta va quyi havzalari nisbatan qir-adir va tekisliklarda iborat bo'lib, "Choch shahri" (arab manbalarida "Madinat ash-Shosh") – Binkat yirik shaharlarni o'z ichiga olib, daryoning yuqori va o'rta havzalarida joylashgan Jabg'ukat, Xotunkat shaharchalari (yoki qo'rg'onlar) ushbu shaharlarning shimoli-sharqida joylashgan edi[8].

Choch vohasining aholisi eng gavjum qismlaridan yana biri Iloq (Ohangaron) vodiysi bo'lib, Ibn Havqal bu hududdagi yirik aholi maskanlarini quyidagicha keltirib o'tadi:

Tunkat, Sakokat, Bonjxosh, Nukat, Boloyon (Yolopon), Tukkat, Arbilax, Namudlig', Xumrak, Biskat, Kuhisim, Dahkat, Xosh va Xarkonkat[9]. Ohangaron vohasidagi ushbu aholi maskanlarining ayrimlarini tadqiqotchilar quyidagicha shahar va qishloqlar bilan tenglashtiradilar: Tunkat – Imloq (Olmaliq sh.dan 15 km shimoli-sharqdagi qishloq), Sakokat (Uvait qishlog'i yonida, bugungi To'ytepa (Nurafshon) sh.dan janubi-sharqda Ohangaron daryosining o'ng qirg'og'ida), Kuhisim – Ohangaron daryosining o'ng qirg'og'ida, ushbu daryoning boshlanish manbalari bo'lgan G'arbiy Tyanshanning Lashkarak va Loyak soylari yaqinida, Bonjxosh – Jumushqazitepa (To'ytepa (Nurafshon) sh.dan janubi-sharqda, Anhor qishlog'i yonida), Nukat – Navkat (Chirchiq daryosining Sirdaryoga quyilishi yaqinidagi Unjikat qishlog'i), Biskat – Piskent, Dahkat – Dukentsoy (Angren – Ohangaron tog'lari oralig'i), Xosh – Xos (Bekobod sh. yaqinida yoki O'rta Chirchiq t.dagi Jumabozor qishlog'i yonida)[10].

Choch vohasining eng shimoli-sharqiy hududida – yozma manbalarda "Jidg'il", "Chatqol" ko'rinishlarida tilga olingan G'arbiy Tyanshan (Tangritog') tizmalaridagi tog'lik hudud islom arafasida va rivojlangan o'rta asrlarda Choch vohasidagi yirik aholi maskanlari va katta-kichik qishloqlar qanday bo'lgani haqida muhim tarixiy tasavvurlar beradi. Bu er janubi-g'arbda Chirchiq vohasi, janubda Parkent vohasi, sharqda Farg'ona vodiysiga tutash Olabuqa va shimoli-sharqda Talas vodiysi (bugungi Qirg'iziston), shimolda Tarozi, shimoli-g'arbda Isfijob – Sayram vohalari (bugungi Qozog'iston)ga chegaradosh bo'lgan.

Xulosa va takliflar. Rivojlangan o'rta asrlarda (IX–XII asrlar) Choch vohasi O'rta Osiyoning eng yirik va sarmahsul aholi maskanlaridan biri sifatida shakllangan. Chirchiq va Ohangaron daryolari havzalaridagi suv resurslari asosida qishloq xo'jaligi, xususan, sug'orma dehqonchilik, bog'dorchilik va chorvachilik faoliyati yuqori darajada rivojlangan. Vohadagi tabiiy-geografik sharoit, suv tizimlari, aholi punktlarining daryo va soy bo'ylarida joylashuvi, ularning iqtisodiy va ma'muriy ahamiyatini belgilab bergan. Arab va fors geograflarining yozma manbalarida vohaning yirik va mayda aholi maskanlari, ularning topografik joylashuvi, iqtisodiy holati, madaniy hayoti haqida aniq va mufassal ma'lumotlar berilgani ushbu hududning tarixiy rivojida muhim iz qoldirganini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1982; Богомолов Г.И. Изображения всадников с городища Канка // ИМКУ, № 20, 1986. – С. 69–79; Богомолов Г.И., Мусакаева А.А. К вопросу о локализации Тарбанди и его названии // Ташкент: вчера и сегодня. – Ташкент., 2007. – С. 66–77.
2. Ходжаев А. Наиболее ранние сведения китайских источников о государстве Шаш (Ташкент) // О 'zbekiston tarixi, №1, 2005. – С. 11-12; Бобоёров Ф. Чоч тарихидан лавҳалар (Илк ўрта асрлар). – Тошкент: Yangi nashr, 2010. – Б. 31.
3. Истахрий. «Китаб ал-масалик вал-мамалик». Йўллар ва ўлкалар китоби. Хуросон ва Мовароуннахр. Тадқиқот, араб тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Р. Т. Худайберганов. – Ташкент: Фан, 2019. – Б. 172.
4. Истахрий. «Китаб ал-масалик вал-мамалик». Йўллар ва ўлкалар китоби. Хуросон ва Мовароуннахр. Тадқиқот, араб тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Р. Т. Худайберганов. – Б. 172-173.
5. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард. Мовароуннахр. Араб тилидан тарж., изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолиддин, масъул муҳаррир Ф.С.Хусанов. – Б. 247.
6. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард. Мовароуннахр. Араб тилидан тарж., изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолиддин, масъул муҳаррир Ф.С.Хусанов. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2011. – Б. 72.
7. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард. Мовароуннахр. Араб тилидан тарж., изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолиддин, масъул муҳаррир Ф.С.Хусанов. – Б. 240-248.
8. Хатамова Н. Турк хоқонларининг Чочдаги қароргоҳлари: Жабғукат ва Ҳотункат. Тошкентнинг 2200 йиллигига // Ўзбекистон тарихи журнали. №2. 2009. – Б. 3–14.
9. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард. Мовароуннахр. Араб тилидан тарж., изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолиддин, масъул муҳаррир Ф.С.Хусанов. – Б. 73.
10. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард. Мовароуннахр. Араб тилидан тарж., изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолиддин, масъул муҳаррир Ф.С. Хусанов. – Б. 254-257.



Oyim NURQULOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail: nurqulovaoyim999@gmail.com

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti, PhD R.Muhammadiyev taqrizi asosida

THE HISTORY OF PRINTING AND PUBLISHING ACTIVITIES IN THE TURKESTAN REGION

Annotation

This article provides information about "Turkestanskiye Vedomosti" the first newspaper established in Central Asia in the second half of the 19th century. The article also highlights the articles published within the framework of the newspaper's program, as well as the main goals and objectives of the newspaper.

Key words: Konstantin Petrovich fon-Kaufman, colonial policy, Turkestanskiye Vedomosti, newspaper program, official and unofficial news, development of cotton production, public discontent.

ИЗ ИСТОРИИ ПРЕССЫ И ТИПОГРАФСКОГО ДЕЛА В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ

Аннотация

В данной статье представлена информация о газете «Туркестанские ведомости», первой газете, основанной в Средней Азии во второй половине XIX века. Также в статье освещаются статьи, опубликованные в рамках программы газеты, а также основные цели и задачи издания.

Ключевые слова: Константин Петрович фон-Кауфман, колониальная политика, Туркестанские ведомости, программа газеты, официальные и неофициальные новости, развитие хлопководства, народные недовольства.

TURKISTON O'LKASIDA MATBUOT VA MATBAA ISHLARI TARIXIDAN

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoda tashkil etilgan birinchi gazeta "Туркестанские ведомости" haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, maqolada gazetaning dasturi doirasida chop etilgan maqolalar hamda gazetaning asosiy maqsad va vazifalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Konstantin Petrovich fon-Kaufman, mustamlakachilik siyosati, Туркестанские ведомости", gazeta dasturi, rasmiy va norasmiy xabarlar, paxtachilikni rivojlantirish, xalq noroziliklari.

Kirish. Insoniyat tarixini ilm-ma'rifatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Turkiston o'lkasi XIX asrda Rossiya imperiyasining mustamlakasi bo'lgan davrida ommaga ma'lumot tarqatish maqsadida ilk matbuot va matbaa o'chog'i sifatida "Туркестанские ведомости"[6] gazetasi vujudga keldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "O'zbek matbaasi tarixidan" Boboxonov.A; Ushbu kitobda ilk matbaalar va ularning asoschilari haqida aniq va qiziqarli ma'lumotlar mavjud. O'rta Osiyodagi matbaalar bosmaxonalarning eng ko'pi Toshkent, Samarqand, Farg'ona vodiysidagi ilk matbaalar haqida keng qamrovli ma'lumot olish mumkin. Ernazarov T.E. Akbarov A.I. "Istoriya pechati Turkestana" (1870-1925).

Yuldashev.Z. "Razvitie knigoizdatelskogo dela v Uzbekistane"; "Turkison matbuoti tarixi" Ernazarov.T., Akbarov.A. kabi mualliflarning kitoblaridan ma'lumot olishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada dastlab ma'lumotlarni tizimli ravishda to'plab chiqildi. Ushbu ma'lumotlarni to'plash jarayonida formatsiyaviy yondashildi. Tadqiqot metodologiyasining asosini izchillik, tizimlilik, qiyosiy va tanqidiy-tahlil metodlaridan foydalanildi. Barcha tarixiy tadqiqotlarda bo'lgani kabi ushbu maqolada ham qiyoslash metodidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni XIX asrning oxirlarida bosib olgandan so'ng 1865-yilda Turkiston general-gubernatorligini tuzdi. Ushbu general-gubernatorlik tarkibiga Sirdaryo (1867), Farg'ona (1876), Samarqand (1887) va Zakaspiy (1897) oblastlari kirgan. Sirdaryo viloyatining markazi Toshkent shahrida joylashgan bo'lib 1-dan ushbu tarixiy voqeani eslatib o'tishdan asosiy

maqsad, ilk matbaa o'choqlari yuqori ma'muriy tashkilotlar tomonidan oblast markazida tashkil etilgan. 2-dan bu oblast xalqlari qadimdan xattotlik, kitobchilik san'atini yaxshi tushunar edi. Fikrimizning isboti sifatida "O'zbekiston SSR" tarixida yozilgan "Avesto" qo'lyozmasi eng qadimgi diniy "kitob" bo'lib, ushbu kitob mil.avvalgi VII-VIII asrlarda yozilgan. Bu qo'lyozma (200 kiyik) 12 ming qoramol terisiga yozilib, muqaddas kitob sifatida saqlanib kelinganligi, X-XII asrlarda Xorazm, Ray, Hamadon va Isfaxon shaharlarida kutubxonalar mavjudligi va bu shaharlar yirik madaniy markaz bo'lganligi haqida A.A.Semenovning asarida aniq tarzda ma'lumotlar berib o'tilgan[1].

Turkiston o'lkasining ilk vaqtli matbuoti sifatida "Turkestanskiye vedomosti" gazetasini olishimiz mumkin. Gazeta 1870-yil 28-apreldan boshlab chiqa boshlagan, ushbu kun Turkiston o'lkasida davriy nashrlarning tug'ilgan kuni hisoblanadi. Turkistonda gazetaga general-gubernator ixtiyorida bo'lgan harbiylar muharrirlik qilgan. Jumladan, gazetaning dastlabki 5 yilligida Turkiston o'lkasining birinchi general-gubernatori Fon Kaufman muharrirlik qilgan edi[2]. "Turkiston gazetasi"ning birinchi rasmiy muharriri piyoda ofitser N.A.Mayev edi, Mayev o'z navbatida O'rta Osiyoning ilk tadqiqotchilaridan biri bo'lib, o'lka geografiasiga va etnografiyasiga oid ko'plab asarlar muallifi hisoblanib, gazetaga 1870-1892 yillarda gazetaga muharrirlik qilgan. Keyingi yillardagi muharrirlari A.P.Romanovich (1892-1899), S.A.Geplener (1890-1901), N.G.Malitskiylar edi (1901-1907). Gazeta dastlab tartibsiz ravishda nashr etilgan. 1870-yil da 17 ta soni nashr yuzini ko'rgan bo'lsa, 1871-yildan boshlab gazeta muntazam ravishda haftada bir marta, 1903-yil dekabrda esa oyda uch marta, 1907-yil mart oyidan boshlab

bir oyda to'rt marta, nihoyat 1907-yil iyul oyidan boshlab, har kuni nashrdan chiqadigan bo'ldi. "Turkestanskije vedomosti" oxirgi soni 1917-yil 15-dekabrda nashr etilgan. Umumiy holatda gazetaning hammasi bo'lib, 48 yil faoliyat yuritgan davrida 640 ta soni[3] nashr etilgan.

Eng ko'p gazeta o'quvchilar Toshkent, Sirdaryo va Samarqand hududida bo'lgan. 1893-yilgacha gazeta kamida 225 va eng ko'p miqdori 300 nusxada chop etilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1899-yilga kelib 1500 nusxaga etdi. 1890-yilning boshida gazetaning Toshkentda 125 obunachisi bo'lgan holda, viloyatlar kesimida 149 nafar obunachisi bor edi[3]. Kitobxonlar gazeta o'quvchilar orasida nafaqat amaldorlar, balki shifokor, harbiy xizmatchilar, topograflar, muhandislar, agronomlar ham bor edi.

"Turkestanskije vedomosti" gazetasini nashr etishdan Rossiya imperiyasi manfaatdor edi. Chunki birinchi navbatda chorizmni ulug'lash, uning hokimiyatini mustahkamlab joylarda Rossiya imperiyasi siyosatini yoyishdan iborat edi. Gazetaning chop etilish dasturiga ko'ra ikki qismga bo'lingan: rasmiy va norasmiy. Rasmiy qismida asosan Turkiston general-gubernatorining buyruq va ko'rsatmalari chop etilgan. Norasmiy qismi esa asosan maqola, eslatma, felyetonlarni o'z ichiga olib, "Ichki yangiliklar", "Yangiliklar va eslatmalar", "Xorijiy xabarlar", "Mahalliy xronika", "Felyeton", "Atrofdan" va "Sankt-Peterburg" bo'limlari mavjud edi[2]. Felyeton bo'limida tarjima adabiyotlar ham nashr etilgan. Gazeta faoliyatining diqqatga sazovor jihati shundaki, u o'sha davrning ko'plab taniqli olimlari, yozuvchilari, taniqli madaniyat va jamoat arboblari hamkorlikka jalb etgan, xorijiy mualliflar, jumladan, rus adabiyoti yozuvchi va shoirlarining asarlarini nashr etgan. Gazetaning qaror va farmonlar bilan to'ldirilgan rasmiy qismi, mahalliy hayotdan turlicha mazmun va mavzudagi materiallarni o'z ichiga olgan norasmiy qismidan keskin farq qilgan. Bu xususida sharq olimlari, tarixchi va enograflarining nashrlari katta qiziqish uyg'otmoqda "Turkiston gazeta" sining mualliflar jamoasiga V.V. Bartold, N.A. Severtsev, A.P. Fedchenko, L.S. Berg, I.F. Mushketov va boshqalar kiradi.

Gazeta boshidanoq Rossiya savdo-sanoat kapitalining manfaatlarini, Markaziy Osiyoda o'z bazasini yaratish va savdo bozorlarini, birinchi navbatda, Rossiya to'qimachilik sanoatini kengaytirish istagini aniq belgilab berdi. Shu sababli ham gazetada o'lkadagi paxtachilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, gazetaning dastlabki sonida bu masalaning Rossiya imperiyasi sanoati va savdosini rivojlantirish uchun alohida ahamiyati ta'kidlangan. Fikrimizning dalili sifatida Turkiston gazetasining ilk sonida "Turkiston o'lkasida paxta etishtirish to'g'risida" maqola e'lon qilingan. Mana shunday mazmundagi paxtachilikni rivojlantirishga oid maqolalar gazetaning har sonida va muntazam ravishda chiqarilgan. (Ernazarov t istoriya pechati)

Paxtachilikni rivojlantirish maqsadida uning hosilini kengaytirish uchun paxtaning hind va amerika navlarini ekishni, paxta ekinlari hududini kengaytirish uchun yangi erlarni o'zlashtirish masalalarini gazetaning har sonida targ'ib qilindi[4]. Gazetaning qaror va farmonlar haqidagi turli xabarlar bilan to'ldirilgan rasmiy qismi mahalliy hayotdagi turli mazmun va mavzudagi materiallarni o'z ichiga olgan norasmiy qismidan keskin farq qilardi.

"Turkestanskije vedomosti" gazetasida asosan o'lkadagi iqtisodiy hayot masalalari yoritilgan. Gazeta boshidanoq Rossiya savdo-sanoat kapitalining manfaatlarini, Markaziy Osiyoda o'z bazasini yaratish va savdo bozorlarini, birinchi navbatda, Rossiya to'qimachilik sanoatini kengaytirish istagini aniq belgilagan holda faoliyat olib bordi.

Gazetaning har sonida sanoat va ishlab chiqarish masalalariga doir maqolalar chop etilgan.

Ushbu gazeta Rossiya imperiyasining rasmiy organi sifatida faoliyat yuritib, to'liq hukumat dasturiga amal qilgan holda Turkiston xalqlari hayotida mavjud bo'lgan ko'plab voqealarni, o'sha davrdagi ziddiyatlar, muammolarni, Rus mustamlakachilari tomonidan ikki tomonlama zulm ostida qolgan xalqning og'ir hayotini, shafqatsiz ekspluatatsiyasi, bosmachilarga qarshi kurashi aks ettirmagan. Gazeta atayin sukut saqlab va chor siyosati foydasiga bo'lmagan muhim ijtimoiy mavzularni doimiy ravishda chetlab o'tgan. Fikrimizning isboti sifatida Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlarida 1887-1897-yillarda 668 ta dehqonlarning norozilik chiqishlari bo'lgan[2]. Biroq, bu qo'zg'olonlarning hech birontasi Turkiston o'lkasi gazetasining rasmiy qismida ham norasmiy qismida umuman yoritilmagan. Bu davrda "Turkestanskije Vedomosti" gazetasida o'z sahifalarini ikkinchi darajali materiallar ya'ni savdo-sanoat, ishlab chiqarish, paxtachilikni rivojlantirishga doir maqolalar va ta'lim, adabiyot va san'at masalalarini yoritish bilan shug'ullandi[2].

Bir so'z bilan aytganda, Rossiya imperiyasi davrida gazetalar ko'plab nashr etilgan bo'lib, unda faqat mustamlakachilarning manfaatlariga xizmat qiluvchi ma'lumotlar chop etilgan. Jumladan, birinchi bosma gazeta "Turkestanskije vedomosti" ham Turkiston umumhukumatining organi sifatida hukmron ekspluatator sinflarning fikrini bayon qilgan holda ham gazetaning har sonida asosan sanoat va paxtachilikni rivojlantirishga doir maqolalar chop ettirgan edi. Shu sababli xalq ommasining og'ir iqtisodiy ahvoli, ularning bosmachilarga qarshi kurashish jarayonlari, qo'zg'olonlari umuman yoritilmagan.

O'rta Osiyoni xomashyo etkazib beruvchi hudud sifatida ko'rgan Rossiya hukumati uchun "Turkestanskije vedomosti" gazetasida ham shu maqsadda faoliyat yuritgan. Shu sababli ham gazetaning har sonida asosan sanoat va paxtachilikni rivojlantirishga doir maqolalar chop etilgan edi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, birinchi bosma gazeta "Turkiston gazetasi" Turkiston umumhukumatining organi sifatida hukmron ekspluatator sinflarning fikrini bayon qilgan, shu sababli xalq ommasining og'ir iqtisodiy ahvoli, turkiston aholisining rus qo'shinlariga qarshi kurashi uning sahifalarida o'z aksini topmagan. Ammo, shunga qaramasdan, bosma so'zining paydo bo'lishi O'rta Osiyo xalqlari milliy madaniyati tarixida muhim voqea bo'ldi. Bu Sharqning rus bo'lmagan millatlari tillarida matbaa va matbaachilikning rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Dastlabki gazetalarda Turkiston xalqi va ularning ustida yanada kuchliroq hukmronlik tizimini yaratish uchun qonun farmonlar va farmoyishlar chop etilgan. Rus hukumati tomonidan doimiy ravishda gazeta va jurnallar chop etilgan bo'lsada ularda asosan qishloq xo'jaligi va xomashyo ishlab chiqarishdagi hisobotlar va yangiliklarni o'z ichiga qamrab oladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan ushbu dastlabki gazeta va jurnallar mahalliy xalq va mushtariylar uchun qiziqish uyg'otadi va keyinchalik ziyoli va ilmiy kishilar tomonidan dastgohlar olib kelinib, yangi bosmaxonalar tashkil etiladi, bu aholining savodxonligini oshirishga va millatning vatanparvarlik va o'zligini saqlab qolishga xizmat qiladi. Afsuski jaddidlar va matbaachilar tomonidan asos solingan bosmaxonalar, gazeta va jurnallar qisqa muddat davomida faoliyatini olib borib mustamlakachi hukumat tomonidan turli ayblovlar bilan faoliyatiga chek qo'yiladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, bizning jaddidlarimiz va ziyolilarimiz aholining bilim va ko'nikmalarini oshirishga tinimsiz harakat qilishgan va bular jaddidlarning asarlarida va gazetalarda o'z aksini topganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Boboxonov A. O'zbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.

2. Ernazarov T.E. Akbarov A.I. Istoriya pechati Turkestana (1870-1925). - T.: O'qituvchi, 1976.
3. Юлдашев З. Развитие книгоиздательского дела в Узбекистане. - Ташкент: Узбекистан, 1969.
4. Чабров. Г.Н. Из истории полиграфии и издательства литературы на местных языках в революционном Туркестане (1868-1911).
5. Kudinova O.M. «Turkiston gazet» — O'rta Osiyodagi birinchi bosma gazeta sifatida (1870-1900). Muallifning qisqacha mazmuni. diss. ...kand. filologiya fanlari - M., Moskva nas'hriyoti. Universitet, 1982.
6. Шадманова С. Архивные документы – важный источник изучения истории периодической печати Туркестана. По материалам Центрального государственного архива Республики Узбекистан // Вестник архивиста. – Москва, 2009.
7. Алиназарова Д.В. Из истории Ферганского типографского дела. Электронный ресурс: <http://elibrary.ru/> [Дата обращения: 11.03.2025]



UDK:94(575.1):331.7(045)

Akmal SAFAROV,
Qarshi davlat universiteti doktoranti
E-mail:akmal.safarov1996@mail.ru

Qarshi DU dotsenti, PhD O.Rahmonqulova taqrizi asosida

IRRIGATOR KADRLAR TAYYORLASH BORASIDAGI QARORLAR TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada keyingi yillarda respublikamiz sug'orish tizimida irrigator kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida qabul qilingan qonunlar tahlil qilingan bo'lib, asosan Qashqadaryo viloyati misolida yuritilgan statistik ma'lumotlar qaror va farmoyishlardan kelib chiqib yaratilgan.

Kalit so'zlar: Professional ta'lim tizimi, irrigatsiya, suv xo'jaligi, mexanizatsiyalash, Orol dengizi, kadr, melioratsiya.

ANALYSIS OF DECISIONS ON THE TRAINING OF IRRIGATORS

Annotation

This article provides an analysis of the laws adopted in recent years within the framework of the reforms implemented in our republic on the training of irrigators in the irrigation system. This article mainly uses the example of the Kashkadarya region as a basis for statistical data generated from decisions and orders.

Key words: Professional education system, irrigation, water management, mechanization, Aral Sea, personnel, land reclamation.

АНАЛИЗ РЕШЕНИЙ ПО ПОДГОТОВКЕ ИРРИГАТОРОВ

Аннотация

В данной статье дается анализ законов, принятых за последние годы в рамках проводимых в нашей республике реформ по подготовке кадров ирригаторов в системе орошения. Статья написана на основе статистических данных, в основном на примере Кашкадарьинской области, на основе постановлений и распоряжений.

Ключевые слова: Система профессионального образования, орошение, водное хозяйство, механизация, Аральское море, кадры, мелиорация земель.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlar natijasida ko'plab mamlakatlar o'rtasida harbiy ixtiloflar ro'y bermoqda. Bu kabi ixtiloflarning ko'plab sabablari mavjud, shunday sabablardan biri bu shubhasiz suv muommosidir. Albatta global havo isishi natijasida mintaqalarda suvga bo'lgan ehtiyoj ortib ba'zi mamlakatlar o'rtasida transchegaraviy daryolardan foydalanish masalasida hukumatlar o'rtasida kelishmovchilik paydo bo'lib, davlatlar buni qurol kuchi bilan yechishga urinishi harbiy ixtiloflarga yo'l ochmoqda. Masalan, Eron va Afg'oniston o'rtasida paydo bo'lgan Helmand daryosidan foydalanish borasidagi kelishmovchilikni bunga misol tariqasida keltirib o'tishimiz mumkin [1] Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatadiki, bunday holat Markaziy Osiyoda ham yuz berishi mumkin. Ma'lumki, O'rta Osiyo gidrografik tarmog'ining o'ziga xos xususiyati uning suv havzalarining nihoyatda notekis taqsimlanishi bilan belgilanadi. Mintaqaning barcha respublikalariga yetqazib beriladigan hamda foydalaniladigan asosiy suv manbalari ikki davlat chegarasida joylashgan. Orol dengizi havzasining asosiy arteriyalari oqimi asosan Qirg'iziston – Sirdaryo (80%) va Tojikiston – Amudaryo (83%) hududlarida hosil bo'ladi. Ikkinchisi O'rta Osiyodagi eng katta daryo bo'lib, uzunligi 2540 km. Amudaryo havzasi taxminan 62,9 kubometrni tashkil qiladi. km jami suv zahiralarning (64 kub km) Tojikiston hududida hosil bo'lgan. Bundan tashqari, respublika muzliklarida katta hajmdagi suvni o'z ichiga oladi - Markaziy Osiyo zahiralarning 60% dan ortig'i mintaqada daryolari muvozanatini tartibga soladi. Sirdaryo Farg'ona vodiysining sharqiy qismida Norin va Qoradaryoning qo'shilish joyida hosil bo'lib, uzunligi 2337 km; uning gidroresurslari 40,6 kubometrni tashkil etadi [2] va aynan xuddi Eron va Afg'oniston o'rtasida sodir bo'lgan holat

biz va qo'shnilarimiz o'rtasida ham sodir bo'lishi ehtimoli mavjud. Va, albatta, bugungi kunda dunyoda suv muommolariga yechim taklif etuvchi bir qator tashkilot, shartnoma va kelishuvlar ishlab chiqilgan. Xususan, BMT ning suv resurslari bo'yicha mexanizmi UN-Water xalqaro platformasi BMTga a'zo davlatlar o'rtasida suv bilan bog'liq muammolarni o'rganib yechib taklif qilayotgan bo'lsa, xuddi shunga o'xshash faqat Markaziy Osiyoga tegishli muammolarga yechim izlash, Markaziy Osiyodagi transchegaraviy daryolardan samarali foydalanish masalalarida hamfikrlikni uyg'unlashtirish maqsadida CARES (Central Asia Regional Environmental-Markaziy Osiyo Mintaqaviy Ekologik markazi) faoliyat yuritmoqda

O'zbekitonda ham bu kabi muammolarni kelib chiqishini oldini olish maqsadidada bir qator tadbirlar amalga oshirildi, kelishuvlarni imzolandi. Xususan, 2017-yilda O'zbekiston va Qirg'izistonning suv masalalari bo'yicha hukumatlararo qo'shma komissiyasi tuzildi, ikki davlat 2022-yilda Andijon (Kampirobod) suv omborining suv resurslarini birgalikda boshqarish to'g'risidagi bitimni ratifikatsiya qilishdi; 2018-yilda O'zbekiston va Tojikiston Farhod va Rog'un GESlari bo'yicha o'zaro manfaatli kelishuvga erishgan bo'lsa, 2022-yilda har ikki davlat davlat rahbarlari Zarafshon daryosida Yovon GESini qurish tashabbusi bilan chiqdilar; 2021-yilda Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtasida To'xtag'ul suv omboridan foydalanish bo'yicha kelishuvga erishilgan edi. [3] Albatta bu sayi harakatlarning barchasi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nomi bilan bog'liq bo'lib, prezidentlikning dastlabki yillaridayoq Shavkat Mirziyoyev Orol muommosiga urg'u berib jahon hamjamiyatini ushbu muommoning ildizlariga e'tibor berishni va agar uning oldini olinmasa yanada

chuqurlashib ekologik falokatlar sodir bo'lishi haqida bir necha marotaaba aytib o'tgan. Jumladan, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2018-yili Mo'ynoqqa tashrifi chog'ida "Global isish muammosi kuchayib, yog'ingarchilik kamayotgan bugungi asrimizda Orol dengizini qutqarish tobora imkonsiz bo'lib bormoqda. Bunday sharoitda yagona yo'l - borini asrab qolish, fojia ta'sirini kamaytirish, odamlar hayotini osonlashtirish" - deya ta'kidlab o'tdi [4]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq O'zbekistonda sug'orish tizimiga doir ko'plab qaror va farmonlar qabul qilingan bo'lib, bu sohada qabul qilingan farmonlarning dastlabkisi O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Vazirlar mahkamasi tomonidan 1992-yil 5-fevraldagi "Toshkent qishloq xo'jaligini irrigatsiyalash va mexanizatsiyalash injenerlari institutida injener kadrlarni tayyorlash haqida"gi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar mahkamasining 1992-yil 11-apreldagi "O'rta Osiyo ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi haqida"gi qarorlari bo'lib ushbu qarorlar keyingi yillarda qabul qilingan qarorlar uchun o'zak vazifasini bajardi. Keyingi yillarda suv xo'jaligida kadrlar masalasiga oid ko'plab qaror va farmoyishlar qabul qilinganiga qaramay ushbu masala chuqur viloyatlar misolida o'rganilmagan va ilmiy maqola va adabiyotlar deyarli yaratilmaganligi mavzuning ilmiy yangiligini ko'rsatib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola ma'lumotlarini tayyorlashda tarixiy metodlardan huquqiy va miqdoriy tahlil, tizimlilik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi

Tahlil va natijalar. Suv masalasidagi o'zaro mahalliy kelishmovchiliklarni hal qilish hukumatlar oldiga bir qancha vazifalarni bajarishni shart qilib qo'yadi: birinchidan: suvdan foydalanish borasida mamlakatlar o'rtasida huquqiy asos yaratish; ikkinchidan: suv masalalarida uzoqni ko'ra oladigan, uning sarflanishini nazorat qiladigan bilimlari irrigator kadrlarni tayyorlash; uchinchidan: suvdan foydalanish borasida tejoyvchi texnologiyalarni yaratish. Bilamizki, qishloq xo'jaligining asosiy yuragi hisoblangan suv xo'jaligida malakali kadrlarni tayyorlash va ularning iqtidori hamda malakasidan foydalanish suvni o'rinni va iqtisod qilib ishlatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda bunga ahamiyat berilgan bo'lsa-da, tom ma'noda bu vazifani bajarishni yangi bosqichga ko'tarish Prezident

Sh.Mirziyoyevning shaxsan tashabbuslarida ko'rinadi. Jumladan, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 8-maydagi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [PQ-3702](#)-sonli [5] qarorida ham qishloq xo'jaligi sohasida malakali irrigator kadrlar bilan bog'liq muammolar mavjudligi va suv xo'jaligida malakali kadrlarni tayyorlash zarurligi aytib o'tilgan.

Shubhasiz, mamlakatimizda ushbu vazifani bajarish maqsadida mustaqillik yillaridan hozirga qadar ko'plab qaror va farmoyishlar yaratildi, ayniqsa, bu jarayon keyingi yillarda yanada jadallashdi. Xususan, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 7-maydagi "Suv xo'jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash to'g'risida" [PF-74](#) —sonli farmon fikrimizning yaqqol dalilidir. Farmonda O'zbekistonda suv xo'jaligini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish orqali sohaga malakali mutaxassislarni jalb qilish va kadrlar qo'nimsizligini kamaytirish sanab o'tiladi [6]

Albatta, bugungi kunda suv xo'jaligi sohasida malakali kadrlar yetishmovchiligi hamda suv xo'jaligi sohasida innovatsiyalar yo'lga qo'yilmagani xususan, "Qashqadaryoda tomchilatib sug'orish jami sug'oriladigan maydonning bor-yo'g'i 2,4 foizida joriy qilingan" [7] bundan tashqari ba'zi hududlarda suv xo'jaligi masalasi oqsayapti bu haqida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 13-noyabrda Qashqadaryoga tashrif davomida "Noto'g'ri sug'orish oqibatida yerlarning 45 foizi sho'rlangan. Ayniqsa, bu borada Muborak, G'uzor, Nishon va Kosonda ahvol juda og'ir. 38 ming gektar maydon foydalanishdan chiqib ketgan" [8] de'ya ta'kidlab o'tgan. Bunday muommolarning vujudga kelishi hech shubhasiz kadrlar masalasi bilan chambarchas bog'liqdir. Buning oldini olish maqsadida prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 24-maydagi [PQ-3003](#) "Qishloq va suv xo'jaligi tarmoqlari uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi [9] qarori imzolandi va aynan ushbu qaror bilan irrigator kadrlarni tayyorlovchi bir qator institutlar va kollejlarni uchun tayanch institutlar belgilab berildi va sifatli irrigator kadrlar tayyorlash vazifasi yuklandi, xususan, shunday kadrlar tayyorlovchi kollejlarni va ulardagi yo'nalishlar Qashqadaryo viloyati misolida quyidagi jadvalda berib o'tilgan:

Kollej nomi	Yo'nalish nomi
G'uzor qishloq xo'jaligi kasb-hunar kolleji	Sug'oriladigan yerlar meliorativ tizimlari bo'yicha texnik
Koson qishloq xo'jaligi kasb-hunar kolleji	Sug'oriladigan yerlar meliorativ tizimlari bo'yicha texnik
Qamashi qishloq xo'jaligi kasb-hunar kolleji	Sug'oriladigan yerlar meliorativ tizimlari bo'yicha texnik
Yakkabog' qishloq xo'jaligi kasb-hunar kolleji	Sug'oriladigan yerlar meliorativ tizimlari bo'yicha texnik [10]

Yuqoridagi jadvalda berilgan kollejlarni uchun aynan tayanch oliy o'quv yurti sifatida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti belgilanishining o'ziyoq sohaga berilayotgan yuksak e'tibordan dalolat beradi.

Aynan so'nggi yillarda bu sohada ya'ni suv xo'jaligida irrigator kadrlar tayyorlash masalasi yanada dolzarblashib asosiy masalaga aylanganini prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 6-sentabrda imzolangan PF-

5812 sonli "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorda ham ko'rishimiz mumkin ya'ni ushbu qarorda ba'zi kasb-hunar maktablari negizida aynan alohida suv xo'jaligiga ixtisoslashgan kollejlarni ham tashkil topgani fikrimizning isbotidir [11].

Xususan, quyidagi jadvalda Qashqadaryo viloyatida tashkil etilgan ana shunday kollejlarni berib o'tiladi.

T/r	Tuman (shahar) nomi	Kasb-hunar kolleji nomi	Kasb-hunar kolleji quvvati	Tizimiga kasb-hunar kolleji o'tkazilayotgan vazirlik, idora va tashkilotlar nomi	Vazirlik, idora va tashkilotlarining ta'lim muassasalari nomi
1	Qamashi tumani	Qamashi qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji	750	Suv xo'jaligi vazirligi	Qamashi suv xo'jaligi va melioratsiya kolleji
2	Kasbi tumani	Denov qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji	750	Suv xo'jaligi vazirligi	Kasbi suv xo'jaligi va melioratsiya kolleji

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bunday professional ta'lim tashkilotlarining tashkil etilishi va suv xo'jaligi sohasiga ixtisoslashuvi eng avvalo suv resurslarini yanada qadrlash hamda bu sohada yuksak malakali kadrlarni vujudga keltirish maqsadida sohaga berilayotgan e'tibordir. Ya'ni ushbu sohaning bugungi davrga javob

beradigan sohaga aylantirish va shu orqali ekologik holat butkul yomonlashishining oldini olishdir. Zero, biz bugun bu sohada SSSR davrida o'ylamay amalga oshirilgan qo'shtirnoq ichidagi islohotlar natijasida orol fojeasining taqdirini guvohi bo'lib turibmiz.

ADABIYOTLAR

1. Mohammad Assem Mayar "The long winding river: Unravelling the water dispute between Afghanistan and Iran" Afghanistan Analysts Network-2023
2. Bekdurdıyeva Gulmira Axmatjonovna "Markaziy Osiyoda ekologik siyosatning konseptual asoslari" Buxoro Davlat Universiteti ilmiy axboroti. Buxoro-2024-yil,5-son.
3. Sanjar Umirzoqov "O'zbekistonning transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish bo'yicha siyosati" Aqua Xalqaro ilmiy-ommabop jurnali 2024-yil may-iyun soni.
4. President.uz "Shavkat Mirziyoyev Orol dengizining qurigan tubiga bordi"
5. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2018-yil 8-maydagi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [PQ-3702](#)-sonli qarori
6. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2024-yil 7-maydagi "Suv xo'jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash to'g'risida" [PF-74 –sonli](#) farmoni.
7. Prezident.uz "Qashqadaryo o'zining salohiyatiga mos yashamayapti" prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 13-noyabrda Qashqadaryoga tashrifi chog'ida so'zlangan nutqidan
8. Prezident.uz "Qashqadaryo o'zining salohiyatiga mos yashamayapti" president Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 13-noyabrda Qashqadaryoga tashrifi chog'ida so'zlangan nutqidan
9. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 24-maydagi "Qishloq va suv xo'jaligi tarmoqlari uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari [to'g'risida](#)"gi PQ-3003-sonli qarori
10. Maqolada faqat kollejlarning suv xo'jaligiga oid bo'lgan yo'nalish nomi berilgan.
11. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 6-sentabrda imzolangan "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5812 sonli qarori



UDK:631.1:316.422-055.2

Maftuna XAYRULLAYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail:maftunaxayrullayeva1996@gmail.com

O'zDJTU dotsenti, t.f.n N.Babadjanova taqrizi asosida

O'ZBEKISTON AGRAR SOHA OLIMALARI FAOLIYATIGA NAZAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada respublika qishloq xo'jaligini ilmiy va innovatsion rivojlanishida izchil yangiliklar qilib, soha rivojiga munosib hissa qo'shgan olim ayollarimiz haqidagi fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan. Qishloq xo'jaligida zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarning olib borilishi, olingan natijalarni amaliyotga joriy etish, sohaga innovatsion yangiliklar taklif etish borasida xotin-qizlarning o'rni ortib bormoqda. Olim ayollarimizning ilm-fan sohasida erishayotgan yutuqlarini qisman o'zida mujassam etgan mazkur maqola ayollarning O'zbekiston qishloq xo'jaligi rivojiga qo'shayotgan salmoqli hissasining yaqqol namunasi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, ilmiy-tadqiqot, innovatsion yangiliklar, gender tenglik, tuproqshunoslik, biologiya.

ОБЗОР ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧЕНЫХ-СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННИКОВ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье представлены мнения о наших женщинах-ученых, которые внесли последовательные новации в научно-инновационное развитие сельского хозяйства республики и внесли достойный вклад в развитие отрасли. Возрастает роль женщин в проведении современных научных исследований в сельском хозяйстве, применении результатов на практике и предположении инновационных инноваций в этой области. Данная статья, частично воплощающая достижения наших женщин-ученых в области науки, является наглядным примером значительного вклада женщин в развитие сельского хозяйства Узбекистана.

Ключевые слова: сельское хозяйство, исследования, инновации, гендерное равенство, почвоведение, биология.

OVERVIEW OF THE ACTIVITIES OF UZBEKISTAN'S AGRICULTURAL SCIENTISTS

Annotation

In this article, opinions about our female scientists, who made consistent innovations in the scientific and innovative development of the republic's agriculture and made a worthy contribution to the development of the sector, are presented. The role of women in conducting modern scientific researches in agriculture, putting the obtained results into practice, offering innovative innovations in the field is increasing. This article, which partially embodies the achievements of our women scientists in the field of science, is a clear example of the significant contribution of women to the development of agriculture in Uzbekistan.

Key words: Agriculture, research, innovation, gender equality, soil science, biology

Kirish. Yangi O'zbekistonda gender tenglik borasidagi beqiyos o'zgarishlar, har bir ayol, xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan e'tiborning ortib borishi natijasida olim ayollar turli sohalar bilan bir qatorda biologiya, qishloq xo'jaligi va uning ilmiy taraqqiyotida ham salmoqli yutuqlarga erishmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli asarida "Bugun O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi ayollarimizga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatishni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va maqomini mustahkamlash ularning huquq va manfaatlarini ta'minlashdir. Bu o'z navbatida, "Ayollarga ilm berish –jamiyatni ilmi, ma'rifatli va salohiyatli qilish", degan aqidani hayotga izchil tatbiq etish" kerakligini alohida ta'kidlab o'tganlar [1].

Qishloq xo'jaligi sertarmoq soha bo'lib, paxtachilik-g'allachilik, meva-sabzavotchilik va uzumchilik, polizchilik va kartoshkachilik, moyli ekinlar yetishtirish, chorvachilikni rivojlantirish borasida ulkan salohiyatiga, qadimiy tajriba va boy an'analarga ega. Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, agrar sektorni zamon talablari asosida rivojlantirish butun insoniyat, jumladan, yurtimiz uchun ham eng dolzarb vazifaga aylanib, bu vazifalarni hal etishda ilmfanni rivojlantirish, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash, sohaga yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.


Qishloq xo'jaligi tizimida olamshumul yangiliklarga intilib, ilmiy izlanishlar olib borayotgan olim ayollar soni ko'payib bormoqda. Qishloq xo'jaligi sohasi murakkab bo'lishiga qaramay, har bir olimadan aniqlik, yakdillik va tezkorlikni talab qiladi. Bugun katta ilmiy salohiyatga ega olim ayollar, yuragida ma'rifat chiroqlari yongan mahoratli pedagoglar sifatida qishloq xo'jaligiga ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim dargohlarida ushbu mas'uliyatni ishini muvaffaqiyat bilan bajarib kelyapti.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Gender tengligi hamda ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish FAO (Birlashgan Millatlar tashkiloti Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti) ning qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish va qishloq aholisining qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlash orqali oziq-ovqat xavfsizligiga erishish yo'lidagi bosqichda muhim o'rin egallaydi. Agrar sohada faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar shuningdek, olimalarga bag'ishlangan "Agrar soha olimalari" kitobi FAO ning O'zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan amalga oshirilgan "Inklyuziv qishloq xo'jaligi siyosatini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash" loyihasi doirasida nashr etildi [2]. Inklyuziv qishloq xo'jaligi siyosati aholining barcha qatlamlarini yoshi, jinsi,etnik kelib chiqishi va dinidan qat'iy nazar, ushbu sohani rivojlantirishga jalb etishni nazarda tutadi. Inklyuziv qishloq xo'jaligi siyosatining joriy etilishi "hech kimni ortda qoldirmaslik" tamoyilini hisobga olgan holda

qishloq xo'jaligida xotin-qizlar va yoshlarning rolini oshirish uchun keng imkoniyatlar ochmoqda. FAO BMT tizimida Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) ga erishishning 21 ta ko'rsatkichi, shu jumladan, gender tengligi bo'yicha mas'ul muvofiqlashtiruvchi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda ayollarning asosiy sohalar bo'yicha taqsimlanishi dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich atrofida shakllangan bo'lib, jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligi sohasida 26,9%, sanoatda 17,4% va xizmat ko'rsatish sohasida 58,7% ni tashkil etmoqda.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi, tabiiy fanlar va tibbiyot fan sohalarida ayol tadqiqotchilarning ulushi
1-diagramma



Qishloq xo'jaligi va tibbiyot fan sohalarini bilan taqqoslaganda eng ko'p tabiiy fanlar bo'yicha esa 2017 yilda 2 506 ta, 2018 yil 3 157 ta, 2019 yil 2 206, 2020 yil 2 574 ta, 2021 yil 3 059 ta, 2022 yil 3 292 ta, 2023 yil 3 312 ta ayol tadqiqotchi-mutaxassislar ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini bajargan [3].

STEM fan sohalariga kiruvchi texnika va texnologiya, tabiiy va qishloq xo'jaligi fanlari, shuningdek tibbiyot sohasida Yangi O'zbekistonda ilmiy-pedagogik faoliyat yuritayotgan olim ayollarning ilmiy tadqiqot ishlari va ularning o'z fan sohasi rivojida qo'shayotgan hissalari beqiyos [4].

Respublikada tuproqshunoslik bo'yicha birinchi tuproqshunos-ayol fan doktori L.A.Gafurovadir. Professor Gafurova Lazizaxon Akramovna tuproqlar genezisi, evolyutsiyasi, biologiyasi, kimyosi, ekologiyasi sohalarida taniqli olim sifatida ushbu sohalarida o'z ilmiy maktabini yaratgan. Hozirgi vaqtga qadar u 500 dan ortiq ilmiy asarlar, shu jumladan 28 ta monografiya, shu jumladan xorijiy 21 ta risola va tavsiyanomalar, 4 ta Atlas, 17 ta Intellekual mulk agentligi guvohnomalari, shu jumladan 18 ta darslik va o'quv qo'llanmalar muallifi, shu jumladan xorijiy 7 ta, "GIS texnologii v pochvovedeni" darsligi "MGUning Klassik darsligi" maqomi berilgan (Seriya – Klassicheskiy universitetskiy uchebnik) [5].

L.A.Gafurovaning davlat va xalqaro miqyosda taqdirlanishi

Mukofot nomi	Mukofotlangan yili
"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" Faxriy unvoni	1999
"O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligi"	2011
"O'zbekiston Konstitutsiyasiga 25 yil"	2017
"O'zbekiston Konstitutsiyasiga 30 yil"	2022
"M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti" ning "Universitet iftixori" esdalik nishonlari	2023
"Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni	2023
"K.Timiryazev nomli Oltin medali"	2019
"Rossiya Fanlar Akademiyasining 300 yillik" medali	2024

L.A.Gafurova ilmiy rahbarligida 22 ta nomzodlik va 5 ta doktorlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilingan. Ilmiy tadqiqotlarni fan, texnika va texnologiyalar ustuvor yo'nalishlari va zamonaviy yangi bilim sohalarini bo'yicha davlat grantlari va xalqaro loyihalar asosida: tuproqlar genezisi, evolyutsiyasi va transformatsiyasi, biologiyasi, iqlim o'zgarish sharoitida sug'oriladigan, lalmikor va yaylov yerlari tuproqlaridan samarali foydalanish va muhofaza qilish, qurg'oqchilik va cho'llanishga qarshi kurashish, raqamlashgan tuproqshunoslik va agrokimyo muammolari, degradatsiyaga uchragan tuproqlar unumdorligini oshirishda yangi agrobio- va nanopreparatlar agrobiotexnologiyalari, GAT va MZ texnologiyalarga oid fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib bormoqda. U nafaqat taniqli olim, tadqiqotchi, pedagog, balki O'zbekiston tuproqshunoslik ilmini, agrar fani yutuqlarini faol ommalashtiruvchisi hamdir – u 60 dan ortiq respublika va xalqaro ilmiy seminar va vebinarlar, konferensiyalar, forumlar, "dala kunlari" va "fermer kunlari" tashkil etgan, xalqaro kongresslarda, dunyoning yetuk universitetlarida ilmiy ma'ruzalar bilan qatnashib kelgan. Olimaning shogirdlaridan biri o'zbekistonlik olimalaridan biri sifatida xalqaro doirada e'tirf etilayotgan D.Egamberdieva – YUNESKO Loreal va UNESCO-Karlos Finley mukofotlari sovrindori hisoblanadi.

Dilfuza Egamberdieva qishloq xo'jaligi sanoatida elastik va barqaror tizimlarga oid ilmiy ishlar olib borgan. Uning tadqiqotlari atrof-muhit muhofazasi va ijtimoiy maqbullikka yo'naltirilgan. Olima UNESCO-Karlos Finley mukofotini o'simlik va mikrobiomlarning o'zaro ta'siri,

o'simliklarning stressga chidamliligi, tuproq biologiyasi va mikroblarning xilma-xilligi sohasidagi tadqiqotlari uchun qo'lga kiritgan [6]. Mikrobiologiya sohasida erishgan salmoqli ilmiy izlanishlari yutuqlari uchun olimlar yoki ilmiy-tadqiqot muassasalari mazkur mukofot sohibi bo'la oladilar.

O'zbekiston sharoitlarida keng tarqalgan bazidial zamburug'larning ferment sistemalaridan foydalanib, bir qator enzimatik faol biopreparatlar yaratishga muvaffaqiyatli asos solgan olim Axmedova Zaxro Raxmatovnaning ilmiy ishidan hozirgi kungacha samarali foydalanib kelinmoqda. Prof. Z.R. Axmedova 550 dan ortiq ilmiy maqolalar, 3 ta o'quv qo'llanma, 4 ta monografiya, 1 ta darslik, 6 ixtiro patenti muallifi, 170 dan ortiq ilmiy ishlari nufuzli xorijiy jurnallar, Scopus va Web of Science bazalariga kiruvchi jurnallarda chop etilgan va u xalqaro platformada yuqori Hirsh indeksiga ega o'zbek olimasidir. Tinmay izlanishlar, doimiy tajribalar va nufuzli xalqaro jurnallarda ilmiy maqolalar e'lon qilinishi, xalqaro anjumanlarda ma'ruzalar qilishi natijasida Z.R.Axmedova akad. I.S.Kulayev va prof. K.D.Davranov hamrahbarligida doktorlik dissertatsiyasini 1999-yili biokimyo va biotexnologiya ixtisosliklari bo'yicha tutash fanlari bo'yicha "Bazidial zamburug'larning tselyulolitik ksilanolitik, ligninolitik ferment sistemalari va ularning lignotsellyuloza substratlari gidrolizidagi o'zaro munosabatlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi[7]. Olimaning asosiy ilmiy yo'nalishi qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, tibbiyot, farmatsevtika sanoatining barcha tarmoqlarini biologizatsiya yo'nalishiga o'tkazish, oziq-ovqat va inson salomatligini saqlash borasida bioxavfsizlikni ta'minlash, kimyoviy vositalar, moddalar,

mineral o'g'itlar sarfini kamaytirish yoki batamom voz kechish, atrof-muhit himoyasi va ekologik muvozanatni saqlash, mikroorganizmlar va ulardan olinadigan noyob biologik moddalarni tahlil qilish va ishlab chiqarish, amaliyotga keng tatbiq etishdan iboratdir. Ilmiy faoliyatining dastlabki yillaridanoq Z.R. Axmedova tarafidan dunyo miqyosida birinchi marotaba tabiiy oqsil+oqsil o'zaro ta'siri, munosabatlari, o'rganilib, ularning mikroob hujayrasida yog'ni parchalovchi lipaza fermentining turli formalarini hosil bo'lish mexanizmi ochib berilgan va ushbu nazariya kasallangan inson to'qimalaridagi nekrotik hujayralarni, jarrohlik septik yaralarini davolash uchun proteolitik fermentlar ingibitorini yaratishga asos soldi. 2015-2017-yillarda Andijon biokimyo zavodi sharoitlarida FA-T 128 "Mikrozim" biopreparatlarining sanoat reglamentini yaratish va paxta yetishtirishda amaliyotga joriy etish texnologiyasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida tayyorlangan 66 tonna biopreparatning sanoat – tajriba variantlari Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlari qishloq xo'jaligi boshqarmalari va fermer xo'jaliklariga 22 tonnadan beg'araz yetkazib berildi va ushbu hududlarda tuproqlarning, atrof-muhit va ekologiya holatiga ijobiy ta'sir etishi bilan birgalikda, paxtadan qo'shimcha 3,8-6,7 s/ga qo'shimcha hosil olishga erishildi. Viloyat hokimliklari tarafidan e'tirof etilib, tashakkurnomalar va ishlab chiqarishga joriy etish dalolatnomalari va ularning samaradorligi yuqori baholandi. Olingan natijalar, yuqori samaradorlik, fermer xo'jaliklari va iste'molchilarning yuqori bahosi va minnatdorchiligi tufayli va beg'araz yetkazib berilgan ekologik xavfsiz biopreparatlarning jonboz muallifi, loyiha rahbari Axmedova Z.R. 2018-yili "Mehnat shuhrati" ordeni olishga sazovor bo'ldi. U 2019-yili O'zR Xotin-qizlar qo'mitasi tarafidan e'lon qilingan. 2021-yili Davlat buyurtmasi asosida Z.R.Axmedova rahbarligida olib borilgan A-FA-2021-123 "Tabiiy ofat yuz bergan hududlarda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish va kasalliklarni oldini olishda ekologik xavfsiz biopreparatlar va ularning kompozitsiyalarini qo'llashning yangi agrotexnologiyalarini yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida Sirdaryo viloyatining Sardoba suv ombori toshqinidan eng ko'p aziyat chekkan Oqoltin, Sardoba, Mirzaobod tumanlarida 150 gektar g'alla va 301 gektar paxta dalalarida hosil yetishtirish uchun 8,5 tonna "Mikrozim-1" va "Mikrozim- 2" enzimli ug'it-biostimulyator preparatlari beg'araz tayyorlanib yetkazib berildi. Bunda g'alladan olingan qo'shimcha hosil 12-18 s/ga, paxtadan esa qo'shimcha 4,3-5,7 s/ga tashkil qildi. Natijada, g'alla samaradorligi ortib, qo'shimcha 160 tonna g'alla, paxtadan esa qo'shimcha 147 tonna tola olish imkonini berdi[8]. Biopreparatlarni 3-marotaba ishlatish orqali mineral o'g'itlar sarfi 50% qisqartirildi, tuproq unumdorligi ortib, biologik faolligi va yuvilgan qavat strukturasi yaxshilandi. Uning rahbarligida va bevosita ishtirokida ekin dalalarida jonbozlik ko'rsatib olib borgan mazkur ishlari natijasida Sardoba, Oqoltin tumanlari va Sirdaryo viloyati hokimiyatlari tarafidan Fanlar akademiyasi, Mikrobiologiya Instituti va loyiha ishtirokchilariga alohida minnatdorchilik bildirilib, rasmiy tashakkurnomalar yuborildi. Prof. Z.R. Axmedova 1995-yildan buyon O'zMU, Toshkent kimyo texnologiyalari,

Farmatsevtika, Toshkent pedagogika Universiteti, Buxoro Davlat oziq-ovqat va yengil sanoati, Jizzax politexnika va Jizzax Pedagogika universiteti, Toshkent davlat texnika Universiteti bakalavr va magistr lari va mustaqil izlanuvchi ilmiy xodimlari bilan mikrobiologiya, biotexnologiya, ishlab chiqarish ekologiyasi va muammolari yo'nalishlari bo'yicha dissertatsiya ishlari rahbari va maslahatchisi sifatida beg'araz yordam berib kelmoqda. U Respublikamiz va qo'shni, hamdo'stlik davlatlari (Qozog'iston, Qirg'iziston) uchun malakali kadrlar tayyorlash ishlarida o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Xulosa va takliflar. Olimlarni turli fan sohalarida o'z intellektual salohiyatlarini namoyish etishlarida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlovchi tayanch doktorantura va doktorantura katta ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda respublikada mavjud oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutlari ilmiy salohiyatni yuksaltirish, ta'lim samaradorligini oshirish hamda ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Olima ayollar safi yildan yilga kengayib borayotgani, ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan dasturiy ishlanmalari, innovatsion g'oyalari, ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyati ta'lim va ilm-fan sohasi rivojiga salmoqli hissa qo'shayotganligi O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarga berilayotgan yuksak e'tibor, yaratilgan shart-sharoit hamda keng imkoniyatlar samarasidir.

Xotin-qizlarning ilmiy salohiyatini yuksaltirish – jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekaligi quyidagilardan yaqqol ko'rinadi:

xotin-qizlarning ilm-fan sirlarini puxta egallashlari, o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini jamiyat taraqqiyoti uchun yo'naltirishlari xalq, millat, mamlakat kelajagi yo'lida ijtimoiy faol bo'lish garovidir;

jamiyatni intellektual rivojlantirish – ijtimoiy taraqqiyot asosidir;

ijtimoiy hayotda ayol ilmiy salohiyatining yuksak bo'lishi – jamiyatda barqarorlik va hamjihatlikning mustahkam bo'lish omillardan biridir;

ta'lim aholining salomatlik darajasi va uning kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi, ya'ni inson rivojlanishining yana bir muhim ko'rsatkichi bilan bevosita bog'liqdir. O'qimishli aholi o'z sog'lig'ini asrab-avaylaydi, profilaktika choralarini yaxshi qo'llaydi, asosan, sog'lom turmush tarziga rioya qilib hayot kechiradi;

ijtimoiy hayotning muhimi bo'g'ini bo'lmish – oiladagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlash, undagi ma'naviy muhitni yaxshilash, farzandlarni yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli hamda jismonan sog'lom etib tarbiyalashda o'qimishli ayolning roli yuqori darajada bo'ladi;

ilmi, bir vaqtning o'zida yuqori ma'naviyatli hamda salohiyatli ayol turar joyi mahalladagi turmush tarziga o'zaro munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

ilmi ayol aholi orasida sog'lom turmush tarsi, tibbiy madaniyat targ'ibotchisi, yot g'oya va qarashlarga qarshi turuvchi shaxs hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. YANGI O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. 236-bet.
2. Agrar soha olimlari. – Toshkent: Badiiy-publisistik nashr, 2021. B.170
3. gender.stat.uz.
4. "Women in STEM" Xalqaro forum ilmiy ishlar to'plami. Toshkent, 2023 yil, 10-14-fevral. 13-bet.
5. O'zbekistonning taniqli olimlari ensiklopediyasi 1-tomi, Toshkent: 2024. Science and Innovation. 435-440 b.
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/11/09/unesco/>
7. O'zbekistonning taniqli olimlari ensiklopediyasi 1-tomi, Toshkent: 2024. Science and Innovation. 110-114 b.
8. O'zbekistonning taniqli olimlari ensiklopediyasi 1-tomi, Toshkent: 2024. Science and Innovation. 435-440 b.
9. Poytaxt olimi ayollari. - Toshkent: "Turon zamin ziyo" 2016. 6-7-betlar



Sanjarbek SHOYIMOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi

Professor, DSc O.Rashidov taqrizi asosida

AFG'ON URUSHIDA SOVET ARMIYASI TARKIBIDAGI O'ZBEKISTONLIK LAR NING DASTLABKI HARBIY HARAKATLARIDA ISHTIROKI

Аннотация

Maqolada Afg'onistonda 1979-1980-yillar boshida yuz bergan urush harakatlarida Sovet armiyasi tarkibida ishtirok etgan o'zbekistonliklarning qahramonliklari, harbiy jasorati hamda Turkiston Harbiy Okrug i tarkibida tashkil etilgan harbiy qismlarning urush harakatlaridagi ishtiroki tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: TurkHO, Musbat, mayor H.Xolboyev, "Qizil yulduz" ordeni, 180-polk, mayor B.Kerimbayev.

УЧАСТИЕ УЗБЕКИСТАНЦЕВ В СОСТАВЕ СОВЕТСКОЙ АРМИИ В ПЕРВЫХ БОЕВЫХ ДЕЙСТВИЯХ В АФГАНИСТАНСКОЙ ВОЙНЕ

Аннотация

В статье анализируются героизм и воинское мужество узбеков, участвовавших в составе Советской Армии в боевых действиях в Афганистане в 1979-1980 годах, а также участие в боевых действиях воинских частей, сформированных в составе Туркестанского военного округа.

Ключевые слова: ТуркХО, Мусбат, майор Х.Холбоев, орден Красной Звезды, 180-й полк, майор Б.Керимбаев.

PARTICIPATION OF UZBEKISTANIANS IN THE SOVIET ARMY IN THE FIRST MILITARY OPERATIONS IN THE AFGHANISTAN WAR

Annotation

The article analyzes the heroism, military courage of Uzbeks who participated in the hostilities in Afghanistan in 1979-1980, as well as the participation of military units formed as part of the Turkestan Military District in the hostilities.

Key words: TurkHO, Musbat, Major H.Kholboyev, Order of the Red Star, 180th Regiment, Major B.Kerimbaev.

Afg'onistondagi urush (1979-1989) "Sovet Ittifoqining Vyetnam urushi" deb nomlandi, bu mojar o sov et muntazam qo'shinlarini shafqatsiz, qiyin va oxir-oqibat engib bo'lmaydigan afg'on partizanlari (mujohidlar) bilan to'qnashdi. Urushning o'n yilligidagi qon to'kish 25 000 dan ortiq sov et askarlarini va yana ko'p qurbonlarni va parchalanish arafasida turgan SSSRni ruhiy tushkunlikka soldi[1].

Shuningdek, Afg'on rahbariyatining mamlakatda yuz berayotgan g'alayonlardan qattiq vahimaga tushib, 1979-yilning boshidan yilning yakuniga qadar doim Sovet hukumatidan o'z harbiylarini mamlakatga kiritishini so'rab, iltimoslar qilgan[2]. Sovet Rahbariyati esa qo'shin kiritish juda katta tavakkalchilik ekanini aytib, har safar bu taklifni rad etib, uning o'rniga harbiy texnika va qurol-yarog' bilan yordam berib turgan edi.

Shunday qilib, 1979-yil 26-aprel kuni Turkiston harbiy okrug i qo'mondonligiga SSSR qurolli kuchlari bosh shtabidan 314/220061-sonli buyruq keladi. Buyruqda 1-iyunga qadar 15-maxsus tayinlanganbrigada tarkibida o'zbek, tojik, turkman millatlariga mansub harbiy xizmatchilardan alohida otryad tuzish lozimligiyu, ushbu otryad 1-avgustgacha maxsus tayyorgarlikdan o'tib, SSSR hududidan tashqaridagi obyektning bosh rahbarini qo'riqlash uchun yuborilishi aytiladi. 4- may kuni TurkHO qo'mondoni general-polkovnik Y.P.Maksimov Chirchiqdagi 64411 sonli harbiy qism (15-brigada) komandiri podpolkovnik A.A.Ovcharovga 21/400755-sonli buyrug'ini yo'llaydi.

Shu tariqa, Chirchiqdagi 15-brigada tarkibida tuzilgan 7-maxsus otryad shakllantirila boshlaydi. Otryad komandiri etib, ming chiqig'iridan o'tgandan keyin, Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanida tug'ilgan Xabibjon Tojiboyevich Xolboyev tayinlanadi. Komandirdan tashqari 10

nafar boshqaruv, 6 nafar shtab a'zolari, 2 nafar partiya-siyosiy apparati xodimi, 1 nafar xavfsizlik xizmatining tezkor vakili, xar biri 120 nafar askardan iborat 3 ta rota, 79 nafar harbiydan iborat qurol-aslaha rotasi, 19 nafar ZSU-23-4 zenit-artilleriyachilar, 6 nafar ta'mirlovchilar guruhi, 20 nafar aloqachilar, 35 nafar ta'minotchilar hamda 5 nafar tibbiyot xodimidan iborat jami 537 nafar harbiylar qo'shni mamlakatga kiritish uchun shay holga keltiriladi[3].

1979-yil 25-dekabrgacha 100 ga yaqin jangovar va ta'minot qismlari tashkil etiladi. Jumladan, harbiy qismlarining shaxsiy tarkibini to'ldirish uchun O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'istondan 50.000 kishi jalb etiladi. Mamlakat qishloq xo'jaligi sohasidan 8000 avtomobil va boshqa texnikalar ajratiladi. Bu O'rta Osiyo mintaqasida urushdan keying davrda shakllantirilgan eng yirik tuzilma edi.

Shu tariqa Turkiston harbiy okrug i qoshida:

- 2 ta motoo'qchi diviziya (Kushkada 5-gvardiyachi MSD, Termizda 108-MSD); - 353- armiya artilleriya brigadasi (2- ZBRr);

56-gvardiyachi, desant-shturmichilar brigadasi (56 DSHBr);

103- alohida aloqa polka (103 – OPS);

28-armiyachi raketa-artilleriya polka (28-ARAP) tashkil etildi. Bundan tashqari maxsus harbiy qismlarining qo'shilma va bo'linmalari ham hozirlanadi.

II.O'rta Osiyo harbiy okrug i qoshida:

860- alohida, "Qizil Yulduz" ordenli Pskov motoo'qchi polka (860 OMSP);

186- alohida moto'qchi polk (186-OMSP. Keyinchalik 108-MSDga qo'shilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan harbiy qo'shilmalardan tashqari, zaxira kuch sifatida Turkiston harbiy okrug i qoshida 58-motoo'qchi diviziya(MSD), O'rta Osiyo harbiy okrug i

hududida esa 68 hamda 201-motoo'qchi diviziyalar (MSD), 103-gvardiyachi havo-desant diviziyasi (BDD) va 345-alohida gvardiyachi parashyut-desant polki (OPDP) ni shaxsiy tarkiblari jangovar holga keltiriladi.

Sovet-afg'on chegarasini kesib o'tish Moskva vaqti bilan 1979-yil 27-dekabr soat 15.00 ga belgilanadi. 40-armiya Afg'oniston hududiga kirgunga qadar 10 dekabrda 15-maxsus tayinlangan brigadaning "7-musulmon batalyoni" (7-MB) qatori davlat razvedka boshqarmasi maxsus otryadining (GRU) xodimlari va 345-gvardiyachi, desantlar polkining (GDP) 9-rotasi kiritilgan edi.

1979-yilning 27-dekabr sanasi ushbu urush tarixida juda katta boshlang'ich nuqta va tarixiy voqea sifatida qolgan. Bunga asosiy sabab sifatida esa ADR rahbari H.Amin edi. Bu so'nggi davr fashisti va afg'on xalqini bo'g'uvchi, AQSH va jahon imperializmining agenti H.Amin aprel inqilobi g'oyalari, Afg'onistondagi demokratik harakatni, Afg'onistondagi demokratik harakatni obro'sizlantirish yo'nalishini izchillik bilan davom ettirgani haqida inkor etib bo'lmay dalillar mavjud. va sovet-afg'on do'stligi. H.Amin va uning guruhi partiya ishiga fidoyi afg'on mehnatkashlarini, o'z mamlakatining chinakam vatanparvarlarini jismonan qirib tashladilar. N.Taraqqiydan so'ng, X. Aminning rahbarlik umri uzoq davom etmadi: 1979 yil 17 sentabrdan 27 dekabr gacha - 101 kun. Kuchli odam, lekin diktatorlik va shafqatsiz despotik odatlarga ega. Sovet elchisi Aleksandr Puzanov bilan kelisha olmadi. Kobulga keldi va uni qaytarib olishni muvaffaqiyatli talab qildi. Ba'zi kuzatuvchilar qo'ng'iroq qilishdi. Mustaqilligi va millatchiligi tufayli uni tadqiqotchilar afg'on "Tito" deb atashgan[4].

U o'z hokimiyatini qarindoshlari bilan o'rab oldi, ularni barcha lavozimlarga tayinladi. Masalan, Uning amakisi Abdulloh Amin shimoliy viloyatlarning hukmdori edi. Jiyani Asadulla Amin - Tashqi ishlar vazirining 2-siyosiy o'rinbosari, Kobul PDPA shahar qo'mitasi kotibi, KAM raisi (Sovet KGB o'xshashi)[5]. Bundan ham yomoni H.Amin esa Sovet maxsus xizmatlari tomonidan AQSH Markaziy Razvedka Boshqarmasi (MRB)ning agenti deb taxmin qilinib kelinar edi va shu boisdan Sovet rahbariyati H.Amindan qutulish chorasini izlay boshladi. Sovetlar puxta o'ylangan siyosiy reja tuzishdi.

Rejaga ko'ra, 27-dekabr kuni kechgi soat 18:00 da xufiyona ravishda davlat to'ntarishi o'tkazilishi lozim edi. Bu to'ntarishni amalga oshirish vazifasi Musulmon bataloni" Bosh razvedka boshqarmasining 154-alohida maxsus kuchlar otryadiga yuklatildi. Ushbu batalyon tarkibi asosan o'rta osiyolik musulmon yigitlardan iborat bo'lib, ularning soni 500 kishidan ortiqni tashkil etardi. Batalyon tarkibida o'zbeklar ko'pchilikni tashkil etgan. Batalyonga rahbar etib, sirdaryolik mayor X.T.Xolboyev tayinlandi. Uning batalyoni safida o'zbek ofitserlari: mayor D.Jalilov, Kapitan Ismat Qudratov, kapitan A.Sattorov, Kapitan E.Ibragimov, Kapitan A.Ashurov katta leytenant Rashid Abdullayev va oddiy askar M.Gadoyev va boshqalar bor edi. Ushbu hujumda 3-rota komandiri leytenant H.Abdullayev ham ishtirok etdi. "Musulmon batalyoni" ga berilgan vazifa shundan iborat ediki, tez fursat Ichida hukumat rahbari qarorgohi bo'lgan "Tojbek" saroyini qamal qilish va H.Amin o'ldirish yuklatildi. Ushbu topshiriqni bajarishdan oldin vazifani maxfiy tarzda amalga oshirish afg'on tomon bilib qolmasligi maqsadida sovet harbiy kiyimi o'rniaga Musbatdagilar mahalliy afg'on libosida bo'lib olishgan. Bu davrda Tojbek yoyaroyni H.Aminni shaxsiy tansoqchilari bilan birga ikki mingga yaqin qo'riqchi qo'riqlar edi. Buning Ichida afg'on Sarando'yi va XAD ham bor edi. H.Xolboyevning buyrug'I bilan saroyini shturm qilish boshlandi. Qamal davrida saroyini BMP hamda BTR, tanklar bilan hujumga o'tilib, hukmdor saroyi tinimsiz o'qqa tutildi. H.Amin va uning o'g'illari qamal vaqtida vafot etishdi. Hatto, Musulmon batalyoni kapitani I.Qudratov bilan bo'lgan suhbat

chog'ida, ushbu harbiy harakat vaqtida sovet harbiylari afg'on libosida bo'lgan o'z quroldoshlariga adashib o'q uzganliklari va bir zumdan so'ng o'q otishni to'xtatish haqida buyruq olingani haqida xotirlaydi. Qamal deyarli 30 daqiqa davom etdi, deydi, mayor H.Xolboyev. Ushbu qamal natijasida aminchi-afg'onlardan ko'plari halok bo'ldi qolganlari asir olindi. Sovetlar tomonidan "Musbatchilar" dan ikki kishi halok bo'lgan va 35 esa kishi jarohat olgan. Ushbu hujumdan so'ng "Musulmon batalyoni" tarkibida umumiy vafot etganlar soni - 8 nafar, og'ir jarohat olib, tibbiy punktda davolanib chiqqanlar - 37 nafar, yengil jarohat olib, davolanib qaytganlar esa - 24 nafarni tashkil etadi. Vafot etgan 8 nafar harbiydan 5 nafari o'zbek o'g'lonlari bo'lgan. Harbiy harakat vaqtida o'zbeklardan kichik serjant M.Sherbekov, oddiy askar, mexanik haydovchi S.Xusanov, oddiy askar, radio-alochachi Sh.Sulaymonov, oddiy askar, oshpaz A.Mamadjonovlar o'z xizmat burchlarini ado etib, mardlarcha halok bo'lishgan. Biroz vaqtdan o'tib, ushbu harbiy harakatda qatnashgan harbiy guruh a'zolari hamda "Musulmon batalyoni" a'zolariga harbiy xizmatlari uchun unvonlariga teng ravishda "Lenin ordeni", "Qizil Bayroq", "Qizil Yulduz" hamda "SSSR Qurolli Kuchlarida Vatan oldidagi xizmatlari uchun" ordenlari bilan mukofotlanishdi. Ushbu harbiy harakatni amalga oshirishda "Musbat"ning o'z alohida bo'lsa-da, qamal qilishda SSSR Bosh razvedka boshqarmasining "Grom", "Zenit" va "Alfa" guruhlar a'zolari ham ishtirok etishgan. Ushbu harbiy operatsiya tarixga "Shturm - 333" nomi bilan kirgan[6].

Afg'onistonda o'z xizmat burchini bajargan Xavfsizlik xizmatining iste'fodagi polkovnigi Xudoyberdi Sohobov hamda Kobul Rezidenturasining sobiq xizmatchi Sunnatilla Mirzaliyevlarning bergan ma'lumoticha, Yuz kishilik «musbat»dan «Shturm»ning ilk kuni 10 harbiy xizmatchi vafot etgan, 34 kishi yaralangan. DXQ xodimlaridan esa o'n nafari halok bo'lgan.

O'sha kuni 1700 dan oshiq afg'on zobiti va askari asirga olingan.

SSSR Oliy Soveti prezidiumining «yopiq» qarori bilan 1980 yilning aprel oyida 400ga yaqin DXQ xodimi orden va medallar bilan taqdirlanadi. Musulmon batalyonining yetti nafar zobiti - X.Xolboyev, A.Sattorov, V Sharipov, R.Tursunqulov, M.Bayxambayev, A.Jamalov va Saxatovlar «Lenin» ordeni bilan taqdirlangan[7].

Ma'lumot sifatida keltirish mumkinki, Musulmon batalyonlari jangovar harbiy harakatlar chog'i o'z kuchini namoyon qila olib, operatsiyani sovetlar foydasiga hal etilishida hissassi katta bo'lgan. Bular orasida 3 ta "Musulmon batalyonlari" bo'lgan:

TurkHO (Chirchiq desant brigadasi bazasida) 154-maxsus topshiriqlarni bajaruvchi alohida otryad (komandir-mayor X.Xolboyev);

O'rta Osiyo harbiy okrugi (Qapchig'ay desant brigada bazasida) 177-otryad (komandir-mayor B.Kerimbayev).

Kavkaz orti harbiy okrugi (Lagodexi, 12-alohida brigada) 173-otryad.

Afg'on urushida 40-armiyaning 180-polkining 7-rotasi mardonavor xizmat qilishdi. 7-rotaning o'zbekistonlik askarlari Shuhrat Nishonov, Xayriddin Eshquvvatov, Shavkat Norqobilov, Shahobiddin Rajabov, Eshboy Kuralov, Hamid Jo'nayev, Ashraf Omonov, Toshtemir Bozorov, Isomiddin Avazov, Boybo'ta Mo'minov, G'ofir Nazarov, Shokir Komilov, Panji Norboboyev, Hoshim Turdiyev, Xolmurod Meyliyev, Mahmud Beknazarov, Eshdavlat Tog'ayev, Jo'ra Obro'yev, Quvondiq Rahimov kabi 120 nafar rota askarlari jangovar harbiy xizmat qilishdi.

Ularning Ichida nurobodlik O'roz Sulaymonovning xotiralari e'tiborga molikdir. 1981-1983-yillarda Afg'onistonda oddiy askar lavozimida xizmat qilgan O'.Sulaymonov o'ziga yuklatilgan vazifani sidqidildan

bajarib, janglardan birida yuz qismidan jarohat olib, harbiy kasalxonaga yotqiziladi. Urushda "oddiy askarga qiyin" deb xotirlaydi jangchi.

Umuman olganda, Sovet Ittifoqining Afg'onistonga harbiy aralashuvi geosiyosiy jihatdan muvaffaqiyatsiz qaror bo'lib, nafaqat Sovet ittifoqi ichidagi, balki butun dunyodagi kuch muvozanatiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Afg'on urushida ishtirok etgan o'zbekistonlik harbiylar katta yo'qotishlarga duch kelgan. Urush davomida

ularning bir qismi halok bo'lgan, bedarak yo'qolgan yoki nogiron bo'lib qaytgan. Urush natijasida ko'plab askarlar og'ir jarohatlar olib, ruhiy travmalar bilan qaytgan. Bu esa ularning jamiyatga moslashish jarayonini murakkablashtirgan. Afg'on urushida sovet armiyasi tarkibida xizmat qilgan o'zbekistonliklarning ishtiroki tarixiy jihatdan muhim voqealardan biri bo'lib, bu urush O'zbekiston va umuman, sobiq Sovet Ittifoqi davlatlari uchun qimmatli saboqlar qoldirdi.

ADABIYOTLAR

1. Lester W. Grau, Michael A. Gress (Translators) The Soviet-Afghan War: How a Superpower Fought and Lost Paperback. Univ Pr of Kansas, 1st edition. February 5, 2002. - 392 p.
2. NSA. Запись беседы) А.Н.Косыгина, А.А. Громыко, Д.Ф.Устинова, Б.Н. Пономарева С Н.М.Тараки 20 марта 1979 года. Общий отдел, 1-й сектор) № 1499. https://nsarchive2.gwu.edu/rus/text_files/Afganistan/March%202020,%201979-2.pdf
3. Xudoyberdi Navro'z. Afg'on urushi: azob va iztirob. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2021. – B.7.
4. Ludwig W.Adamec. Historical Dictionary of Afghanistan. Second Edition. Asian/Oceanian Historical Dictionaries, №.5 The Scarecrow Press, Inc. Lanham, Md.,- London. 1997. P.37.
5. В Пластун. Изнанка Афганской войны гг Дневники вые записи и комментарии участника— М.: ИВ РАН, 2016. С.153.
6. Абдуллаев, Рашид. Время выбрало нас: (история 154-го ооСпН ГРУ ГШ ВС СССР /«мусульманского батальона»/ И хронология операции «штурм-333» В документах и воспоминаниях очевидцев) / Р. Абдуллаев, Х. Абдуллаев Ташкент: «Истиқлол нури», 2015. С.215-272.
7. Ошкор бўлган тарих сири: мантиқсиз Афғон уруши ва унда қатнашган ўзбек разведкачилари / https://uza.uz/uz/posts/oshkor-bolgan-tarix-siri-mantiqsiz-afgon-urushi-va-unda-qatnashgan-ozbek-razvedkachilari_375599